

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO'LCHILIK FAKULTETI

5440100 – Veterinariya ta'lim yo'nalishi

Hamzayev Uchqun To'lqin o'g'lining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Sat-som” preparatining gipotrofik tug'ilgan qorako'l
qo'zilar o'sishi va rivojlanishga ta'siri**

Ilmiy rahbar, dotsent

N.O.Farmonov

**Veterinariya, zootexniya va
qorako'lchilik fakulteti
dekani, dotsent _____ H.B. Niyozov
«_____» _____ 2015 yil**

**“Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi,
jarrohlik va farmakologiya kafedrasini
mudiri, dotsent _____ B.D.Narziyev
«_____» _____ 2015 yil
№ _____ - sonli yig'ilish bayoni**

SAMARQAND – 2015

MUNDARIJA

№		Bet
1	Kirish	3
1.1.	Mavzuning dolzarbligi	11
2.	Adabiyotlar sharhi	14
2.1.	Probiotiklarni veterinariya amaliyotida qo'llanishi	14
3.	Xususiy tekshirishlar	35
3.1.	Xo'jalikning umumiy tavsifi	35
3.2.	Gipotrofik tug'ilgan qo'zilar organizmiga sat-som preparatining ta'siri.	36
4.	Veterinariya ishini tashkil etish va iqtisodiyoti	42
5.	Menejment asoslari	50
6.	Fuqarolar mudofasi va mehnat faoliyati havfsizligi	66
6.1.	Mehnatni muhofaza qilish	72
6.2.	Fuqarolar mudofaasi	73
7.	Xulosalar va takliflar	75
8.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	76
9.	Internet ma'lumotlari	78

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizasiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir" mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, 2014 yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi.

2014 yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4miliard 200 million dollaoga teng bo'lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

Qishloq xo'jaligida erishilgan yutuqlar haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bu sohada biz qo'lga kiritgan ulkan marralar, avvalo, fermerlarimiz, qishloq xo'jaligi mutaxassisleri va qishloq taraqqiyoti bilan bog'liq tarmoqlarda mehnat qilayotgan yuz minglab yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati, bilim va tajribasining samarasidir. Dehqon va fermerlarimizning mardonavor mehnati, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida birinchi marta 8million 50 ming tonnalik yuksak g'alla xirmoni bunyod etildi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etishga doir chora tadbirlar dasturining amalga oshirishi natijasida chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etildi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida barcha toifadagi xo'jaliklarida qoramollar bosh soni 10 mln 994,6 ming boshni shundan sigirlar 4 mln 84,8 ming boshni; qo'y va echkilar 18 mln 447,4 ming boshni, parrandalar 56 mln 195 ming boshni tashkil etdi. 2014 yilda 1 mln 906,5 ming tonna tirik vazinda go'sht, 8 mln 432,8 ming tonna sut, 4 mlrd 949,9 mln dona tuxum, 46,5 ming tonna baliq 8,7 ming tonna asal ishlab chiqarildi.

Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2014 yil uchun tasdiqlangan dasturlar ijrosi yuzasidan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi chorva mollariga 2613 ta zooveterinariya punktlari tomonidan zooveterinariya servis xizmatlari ko'rsatildi. Respublikada foaliyat yuritayotgan 410 ta qoramolchilik naslchilik xo'jaliklarida 7,8 ming bosh naslli mollar tayrlanib ouksionlarda sotish tashkil etildi.

Ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. Ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash amalga oshirildi.

2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlari bajarildi.

2015 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini

ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Buning uchun:

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizasiya va diversifikasiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur.

Ikkinchidan. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir.

Uchinchidan. Iqtisodiyotimizda davlatning ishtiroki qay darajada ekanini tanqidiy baholash, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish zarurligini alohida ta'kidlashni o'rinli deb bilaman.

To'rtinchidan. Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investisiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Beshinchidan. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishningeng muhim manbai va omilidir.

Oltinchidan. Rivojlangan infratuzilmani tashkil etmasdan, birinchi navbatda, axborot-kommunikasiya tizimi, yo'l-transport va muhandislik-kommunikasiya qurilishini taraqqiy ettirmasdan turib, iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan o'zgartirishga erishish mumkin emas.

Aholi farovonligi va turmush darajasini muttasil oshirish bilan bog'liq masalalar doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

2015 yilga mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb nom berganimiz zamirida ham mohiyat e'tibori bilan ana shunday ezgu maqsadlar mujassam ekani,

o'ylaymanki, barchamizga yaxshi ma'lum. Bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo'lgan mo'tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.

“ O'zbekistonda oziq- ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari” mavzusidagi halqaro konferensiyaning oshilish marasimidagi O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning nutqida ta'kidlanganidek, oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan halqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga kelayotgani jiddiy tashvish va havotir uyg'atayotganini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda mazkur muammo jahon hamjamiyati uchun o'ta dolzarb va jiddiy tahdidlar qatoriga kiritilmoqda.

BMT ning oziq – ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya'ni har sakkiz odamning biri to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'loqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 milliondan ortiq bola bo'yining o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda.

Yer yuzi aholisini tez ko'payib borayotgani bilan oziq- ovqat mahsulotlari bilan ishlab chiqarish hajmining o'sishi imkoniyatlari cheklangani o'rtasidagi tavofut oziq- ovqat dasturini hal etish masalasi yildan- yilga keskinlashib borayotgani asosiy sababi ekanini haqida bugun ortiqcha gapirishni hojati yo'q, deb o'ylayman.

Sodda qilib aytganda, oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi aholi soni va ehtiyojlarning o'sishidan ortda qolmoqda.

To'laqonli ovqatlanish ko'p jihatdan uning tarkibiga, iste'mol qilinayotgan oziq- ovqat mahsulotlarining insonning normal rivojlanishi va faoliyat yuritishi,

uning organizmida to'g'ri modda almashinuvi, salomatlikni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, keksayish jarayonini sekinlashtirish va o'mrni uzaytirish uchun zarur bo'ladigan to'yimli va sifatli moddalar bilan kerakli darajada ta'minlanishiga bog'liq.

Bu borada ovqat bilan birga o'rnini hiech narsa bosalmaydigan aminokislotar, vitaminlar, mineral moddalar, mikroelementlar va organizmda o'z-o'zidan hosil bo'lmaydigan boshqa moddalarning ham iste'mol qilinishi inson hayoti uchun eng muhim ahamiyatga egadir. Ana shu foydali moddalar, vitamin va mikroelementlar katta miqdorda va yetarli darajada faqatgina sabzavotlar, meva va uzum tarkibida, chorvachilik mahsulotlaridan go'sht, sut, tuxumda bo'ladi va ularning o'rnini boshqa hiech qanday mahsulot bosa olmaydi.

Boshqacha aytganda, inson salomatligi, uning uzoq va barakali umr ko'rishi to'g'ri va mutanosib rasion asosida ovqatlanishni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Xalqaro diyetologlarning tavsiyasiga ko'ra, inson iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning kamida 50 % ni meva va sabzavotlar tashkil etishi zarur.

O'zbekistonda shakllangan ko'p asrlik an'anaviy sabzavotchilik va bog'dorchilik madaniyati azaldan mahalliy o'g'itlardan foydalanishni ko'zda tutadigan biologik dehqonchilik prinsiplariga asoslangan (mahalliy o'g'it bilan chorvachilik ta'minlaydi). Bu genlarni modifikasiya qilish texnologiyalarini qo'llamasdan, juda mazali ta'mga va istemol xususiyatlariga ega bo'lgan ekologik toza meva va sabzavotlar yetishtirish imkonini beradi. Biz mineral o'g'itlar, pestisidlao va shu kabi vositalarning o'rniga doimo ko'plab kelayotgan va biz uchun ustuvor bo'lgan organik o'g'itlardan foydalanishni afzal deb bilamiz. Biz dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqdamiz. O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va mabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o'nta yetakchi dalat qatoriga kiradi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq barcha sohalarda bo'lgani kabi veterinariya sohasida ham qator islohatlar amalga oshirildi va

osHIRILMOQDA xususan 1993-yil 3 - sentyabirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining hozirgi Oliy Majlisi navbatdagi chaqirig'ida "Veterinariya to'g'risidagi qonun" qabul qilingan bo'lib, u 6ta bo'lim 23 ta moddadan iborat va veterinariya xizmatining barcha sohalariga oid xar bir mutaxasis uchunularning huquq hamda vazifalari keng ma'noda bayon qilingan bo'lib, asosiy qonun xujjati hisoblanadi.

Chorvachilikni rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabulqilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi PQ-308 son "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga chetdan qoramollar zooveterinariya, asbob uskunalari olib kelish uchun tegishli imtiyozlar berishga hamda chorvachilik sohasidagi mavjud muammolar hal qilib berilganiga qaramasdan bugungi kunda tashkil qilingan zooveterinariya punktlarining va chorva mollarini sun'iy qochirish punktlarining 62 foizi to'liq jihozlanmagan, ular uchun zarur asbob uskunalari olib kelish uchun tumanlarda qoniqarsiz tashkil yetilgan chorva mollarini sun'iy qochirish bo'yicha tuzilgan shartnomalar viloyatda 20% bajarilgan xolos. Viloyat tumanlarida chorva mollari uchun oziqa ekinlari yetishtirish dag'al hashak jamg'arish ishlarida aniq rezliklatilmasdan.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida:

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash birinchi navbatda qoramol boqish va yrtishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini ko'tarish va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.

Respublika halq xo'jaligining barcha sohalarida shu jumladan, qishloq xo'jaligi va uning ajralmas qismi hisoblangan chorvachilikda o'tkazilayotgan islohatlar o'zini ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Bunga misol qilib chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida

yetishtirilayotganligini keltirish mumkin. Binobarin yangi tashkil yetilgan fermer xo'jaliklari ilmiy va ommaviy tavsiyalar bilan ta'minlash, ularni rentabillik ho'jaliklariga aylantirish sohani istiqbolini belgilaydi. Chunki keyingi besh yilda chiqarilgan farmon va qarorlar aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308 va 2008-yil 21-apreldagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-842- qarori chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish borasida katta imkoniyat yaratdi.

Sohaga oid e'lon qilingan barcha farmon va qarorlar Respublikamizda xo'jalik toifasidan qat'iy nazar chorvachilik bilan shug'ullanuvchilarning daromadini oshirish va ichki bozorni yetarli miqdorda sifatli maxsulotlar bilan to'ldirishni ta'min lashga qaratilgan. Shuningdek chorvador uchun qulay shart sharoitlar yaratib, ularga quydagi imkoniyat va imtiyozlarni berdi.

- qonunchilikda shaxsiy yordamchi va fermer xo'jaliklarda qoramol parvarishlash bilan shug'ullanadigan shaxslar ish bilan band axoli toifasiga kirishi, ularga mehnat daftarchasi berishni va ish staji hisobga olishi, nafaqa yoshiga yetganda nafaqa olishi xiuquqiga ega bo'lish;

- chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo'jalikalar hamda parrandachilik korxonalariga ajratilgan sug'oriladigan yerlar faqat yem hashak yekinlari uchun paxta yekishda foydalanmaslik;

- omixta yem, shrot, shuluxa, kepak va boshqa ozuqa turlarixarid qilish mumkin bo'lgan oziqa sotish bvo'yicha yagona ixtisoslashgan shaxobchalarni tashkiletish;

- zooveterinariya hizmatlari ko'rsatish tuzilishining yanada yaxshilash, veterinariya laboratoriyalari va veterinariya punktlari zamonaviy uskunalari bilan jihozlash.

Joriy yilning mamlakatimizda “Keksalarni e’zozlash yili” deb nomlanganligi halqimiz irodasi, yurtdoshlarimiz qalbidagi tuyg’ularning to’liq ifodasi bo’ldi. Yurtdoshimiz Konstitusiyaning yigirma ikki yiligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasida ta’kidlanganidek, “Bugun turli sohalarda erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, mo’tabar qariyalarimizning unitilmas va ulkan xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimiz, qo’limizdan kelganicha ularning og’irini yengil, umrini uzoq qilishni o’zimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim”.

Ayni paytda O’zbekistonda 60 yoshgan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ziyod ekanligi, ayni kunda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashayotganligi yurtimizda umrboqiylik darajasi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Turmushimiz farovonlashib borsa, umrboqiylik darajasi ham shuncha oshadi.

“Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturi 2015 yil 18 fevralda qabul qilindi, u oltita bo’lim, 66 ta bandni o’z ichiga oladi. Dastur keksa avlodga e’tibor va g’amho’rlikning chinakam namunasi bo’lgan tom ma’nodagi tarixiy hujjatdir. Unda halqimiga xos azaliy qadriyat – keksalarga bo’lgan hurmat va ehtiromning barcha jihatlari, qariyalarning kundalik hayoti bilan bog’liq bo’lgan barcha holatlar o’z ifodasini topgan, birorta masala e’tibordan chetda qolmagan.

Davlat dasturida keksalarga g’amxo’rlik va e’tiborni kuchaytirishi; ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish; pensiya ta’minoti va ijtimoiy qo’llab – quvvatlash, davlat hizmatlari ko’rsatishning eng qo’lay tizimini shakllantirish; uchun va mehnat faxriylarini moddiy va ma’naviy qo’llab – quvvatlash; tibbiy va ijtimoiy xizmat ko’rsatish darajasi va sifatini oshirish; mamlakatimizning mudafaa qudratini mustahkamlash; ijtimoiy – iqtisodiy va intellektual salohiyotini kuchaytirish; tinchlik, totuvlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashga bebaho hissa qo’shgan, barkamol avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etib kelayotgan keksa avlod vakillariga alog’ida ehtirom ko’rsatish, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish ko’zda tutilgan. Har bir keksaga e’tiborni qaratish, ularning turmushi va dam olishini tashkil etish sifatini oshirish, jismoniy

tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish, mahallalarda keksalar va nogironlarga doimiy e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan mahsus komissiyalar tuzish tadbirlari belgilangan.

“Keksalarni e'zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan chora – tadbirlarning amalga oshirishi ozod va obod Vatan, erkin va foravon hayot barpo etish yo'lida qo'yilgan muhim qadam sifatida tarixga kirishi shubhasiz.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida chorvachilik tarmog'ida xususiy mulk ustunligi ta'minlandi. Asosiy chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklar sifatida chorva xo'jaliklari asosiy o'rinni egallaydi. Natijada keyingi yillarda chorvachilik mahsulotlari iste'mol miqdori barqaror o'sib bordi. Jumladan, aholi jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 1990 yilda 31 kg ni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 38 kg ni; sut va sut mahsulotlari iste'mol qilish 183 kg dan 239 kg ni; tuxum iste'mol qilish 97 donadan 138 donani tashkil etdi.

1.1. Mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy ishlab chiqarish amaliyotida chorvachilikda ayniqsa qorako'lchilikda hayvonlar mahsuldorligini oshirish kunlik semirishini ko'paytirish bilan bir vaqtning o'zida, hayvonlar rezistentligini oshirish turli xil oziqalar konservatsiya ta'sirini kamaytirib, insonlar sog'ligi uchun zararsiz va oliy sifatli go'sht mahsulotlari yetishtirish dolzarb masala hisoblanadi. Buning uchun dunyo miqyosida go'sht ishlab chiqarish sohasida ko'plab biologik faol moddalar qo'llanilmoqda. Ular o'sishni stimullovchi moddalar guruhiga kirib organizmga anabolitik ta'sir ko'rsatadi. Bularga oqsil-vitaminli va mineral qo'shimchalar, organ va to'qimalardan gidrolizlangan mahsulotlar, oziqaviy antibiotiklar, anabolitik moddalar, o'simliklar preparatlari va probiotiklar kiradi. Biroq ayrim manbaalardan ma'lum bo'lishicha Rossiya davlatining chorvachilik bilan shug'illanadigan xo'jaliklarida ularning iqtisodiy samarasi kamligi, ziyonli ta'sirlari mavjudligi, hamda ta'sir doirsining bir xilda emasligi va yetarlicha o'rganilmaganligi sababli, kam qo'llaniladi. (Y.S.Ankin 1996 y.)

O'sish va rivojlanishni stimullashda organizm uchun samarali va fiziologik xavfsiz hisoblangan moddalar, bular gormonal preparatlar hisoblanadi biroq ularning ta'siri qisqa muddatli hisoblanadi. Bunday preparatlarning ziyonli ta'siri samatotropin orqali yuzaga chiqadi. Shuning uchun samatotropinni o'zini qo'llash xavfsiz hisoblanadi va oziq ovqat mahsulotlarida kamroq to'planadi (L.J.Machlin1972 y.). Uni ko'p martalab qo'lash zarur va narxi qimmatga tushadi va iqtisodiy samara bermaydi.

Chorvachilikning, jumladan qorako'lchilikni rivojlantirishda so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan ko'plab yangidan yangi imkoniyatlar ochilmoqda chet mamlakatlardan olib kelinayotgan sermaxsul zotdor qorako'l turlarining ko'payishi biz veterinariya mutaxassislari oldiga ham muhim vazifalarni va o'z kasbimizga ma'suliyat bilan yondashishni talab etadi. Ulardan kelajakda ko'zda tutilgan maxsulot va sog'lom nasl olish uchun manashu talabni to'liq qondirish zarur. Buning avval fermer xo'jaliklarda to'liq ratsion asosida oziqa ekinlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur, hamda mahsuldorlikni oshiruvchi, sog'lom nasl olish uchun organizm butun faoliyatini stimullovchi yangi zamonaviy farmokologik preparatlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, buning uchun bizlar o'z oldimizga yangi bakterial preparat SAT-SOMni gipotrof tug'ilgan qo'zilar organizmga, uning o'zgarishiga, rivojlanishiga ta'sirini o'rganishni vazifa qilib oldik.

“SAT-SOM” preparati xech qanday pirogen, allergiya chaqiruvchi, mahalliy qitiqlovchi ta'sir ko'rsatmaydi, cho'chqalar umumiy ahvoliga salbiy ta'siri yuzaga chiqmaydi.

“SAT-SOM” cho'chqa bolalari yashab ketishiga ularning yaxshi o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

“SAT-SOM” och-sarg'ish rangli moysimon emulsiya bo'lib tarkibida xloramfenikolatsetiltransferaza oqsili (SAT) va e.Coli shtamidan xujayra gennojeneriyasi orqali mikrobiologik sintez qilingan samotostatini (SOM) dan iborat. Preparat 38-40⁰ C qizdirilgan holda teri ostiga yuboriladi, qo'llash miqdori 2,5 mg 50 kg tirik vaznga.

Farmakologik ta'siri hayvonlar organizimida samotostatinga qarshi antitela ishlab chiqaradi, to'qima va organlarda uning miqdorini kamaytirib endogen samototropin va oshqozon ichak yo'llaridagi fermentlarni faollashtiradi, buning natijasida o'sish tezlashadi, sut miqdori ko'payadi. SAT-SOM preparati gormon emas. Tarkibi oqsil va erituvchi yog'dan iborat.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra Rossiya va Gollandiyada qoramollarni bo'rdoqilashda "Sat-Som" preparati bo'rdoqi uchun mo'ljallangan hayvonlar yoshligida ikki marta qo'llaniladi va ular 18 oylikigacha saqlanib boqiladi hamda yakunda 400-500 kg tirik vazngacha erishiladi. Bizlarda bunday imkoniyatlar chegaralangan. Yaxshi shaxsiy va yordamchi xo'jaliklarda bo'rdoqilash uchun bozorlardan qoramol sotib olib boqilishini hisobga olsak, katta yoshdagi bo'rdoqi mollarga "Sat-Som" preparatining qanday ta'siri to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas. SHularni hisobga olgan holda bizlar o'z oldimizga "Sat-Som" preparatining gipotpofik tug'ilgan qorako'l qo'zilar o'sish va rivojlanishga ta'sirini o'rganishni maqsad qilib ushbu bitiruv malakaviy ishini bajardik.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

2.1.Probiotiklarni veterinariya amaliyotida qo'llanishi

Veterinariya amaliyotida bakterial preparatlar qo'llanishda ilk bor I.Ye.Mozgov 1964 yilda chorvachilikda stimulyatorlarning qo'llanishi to'g'risida olib borgan tajribalarida ta'kidlab o'tgan.

Buyuk rus olimi I.I.Mechnikov hayvonlar va odamlar ovqat hazm qilish yo'lidagi mikroflaraning fiziologik ahamiyati juda muhimligini aytib, asidofil tayoqchasi muxitning qatiq bilan aralashmasi odamlar uchun ham, hayvonlar uchun ham davolash uchun hamda kasalliklarni oldini olish maqsadida qo'llashni taklif qilgan. Asidofil tayoqchasi hayvonlar uchun zararsiz mikroorganizm hisoblanib, ovqat hazm qilish yo'lida uchrab uglevodlarni parchalab, eritib sut kislotasi ishlab chiqarishda qatnashadi va oshqozon-ichakning myatniksimon harakatini kuchaytiradi ferment ishlab chiqarish faoliyatini va prestaltikasimon harakatini faollashtiradi. Buning oqibatida butun ovqat hazm qilish sistemasi fiziologik ish jarayoni tiklanadi, hazm bo'luvchi moddalarni o'zlashtirish yaxshilanadi, turli toksin zaharlarni neytrallaydi, patogen mikroorganizmlar hayoti uchun yomon ta'sir qiluvchi muhit paydo bo'ladi.

Sokolov V.D (2010) ma'lumotlaricha Asidofil tayoqchasi oddiy muhitda ovqat hazm qilish yo'lidagi mikroflora tarkibida doimiy uchrab turadi. Ammo ko'pgina kasalliklarda va noto'g'ri oziqlantirish natijasida ichaklarda ularning soni keskin kamayib ketadi, yangi tug'ilgan hayvonlarda hayotning birinchi haftasida ham ular uchramaydi yoki juda ham kamsonli bo'ladi. Buning natijasida yosh hayvonlar umumiy ahvoli va turli ta'sirlarga o'ta sezuvsan hisoblanadi. Ovqat hazm qilish yo'lga biron bir patogen mikroorganizm tushib qolsa uning zaharini neytrallovchi mikroorganizmlar bo'lmaganligi sabali turli kasalliklarga sabab bo'ladi.

Biroq qatiq tarkibidagi muhitning ayrim kamchiliklari sababli asidofil tayoqchalari chidamsiz bo'lib, ovqat hazm qilish tizimida 6-10 soat mobaynida o'lib ketadi. Yuqoridagilarni hisobga olib ushbu mikroorganizmlarni o'stirishning

yangi texnologik usuli ishlab chiqildi. Buning uchun go'sht bulyonidan foydalanilgan va ABK asidofil bulyonli kultura deb atalgan.

Keyinchalik ushbu preparat ustida olib borilgan tajribalar natijasida asidofil tayoqchasi bilan birga propionli bakteriyalar ya'ni B gurux vitaminlarini miqdoriga ijobiy ta'sir qiluvchi bakteriyalar bilan boyitilgan.

Bunday kompleks preparat PABK deb nomlandi. PABK propionova asidofilnaya bulyonnaya kultura. Ko'pchilik tadqiqotlar natijasida PABK ABK ga nisbatan yaxshiligini isbotladi. U hayvonlar o'sish va rivojlanishini tezlashtiradi, bug'ozligini kechishini, homilaning ichki rivojlanishini yaxshilab, organizmning himoya vositasini kuchaytiradi.

Biologik prepart hisoblangan vitamin B₁₂ (PABK) o'z tarkibida propionli bakteriyalar muhiti va asidofil tayoqchasini saqlaydi. PABK tarkibida foydali sut kislotasi bakteriyalari ko'pchiligini tashkil qilib, hayvonlar va parrandalar ichaklarida patogen hisoblangan chirituvchi bakteriyalar, mikroorganizmlar jumladan paratifoza kasalliklar qo'zg'atuvchilarini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu preparatning samaradorligi tarkibidagi ikkita oziqa muhiti va vitamin B guruhining birgalikdagi ta'siri natijasi hisoblanadi. Preparat dozasi ishlab chiqarishda tarkibidagi vitamin B miqdori hisobga olinib, uning miqdori 1000 mkg/l bo'lishi kerak.

Biologik prepart hisoblangan B₁₂ (PABK) hayvonlarda B vitamini gipovitaminozlarini davolashda va oldini olishda, oshqozon ichak faoliyatini buzilganda alimentar anemiyada hamda hayvonlarning o'sish va rivojlanishini tezlashtirishda qo'llaniladi.

PABK toza hoida parrandarning pullorozida jo'jalarga suviga qo'shib, sutga yoki obratga qo'shib beriladi. Bundan tashqari cho'chqalar paratifida, buzoqlarning dizenteriyasi va boshqa oshqozon ichak kasalliklarida kuniga 3 mahal 25-30 ml dan 3-5 kun davomida berib borish kerak. Preparatning saqlash muddati tayyorlangan kundan boshlab 3 oy, quruq va qorong'i joyda saqlanish kerak. 10 °S temperaturada. Preparat ko'proq ozuqasiga qo'shib beriladi.

PBAK ning bir martalik dozalari.

Cho'chqalar		Buzoqlar		Jo'jalar	
Yoshi	Dozasi	Yoshi	Dozasi	Yoshi	Dozasi
15-20 kunlik	20 mkg	1-10 kunlik	50 mkg	1-5 kunlik	1 mkg
21-30 kunlik	25 mkg	11-20	60 mkg	6-10 kunlik	1,5 mkg
30 kundan katta	25-30 mkg	20-30 kunlik	80 mkg	11-20 kunlik	2 mkg
Ona cho'chqaga	50 mkg	30 kundan katta	100 mkg	21-30 kunlik	3 mkg

Yangi tug'ilgan cho'chqa bolalarida uchraydigan kasalliklarni oldini olish maqsadida PABK bug'oz ona cho'chqalarga 2 marta 10 kundan tug'ishiga 2 oy va 1 oy qolganda berib boriladi, tuqqandan keyin esa dastlabki 5 kun davomida beriladi.

Qatiq va sut yoki qaymog'i olingan sutga tayyorlangan PABK davolash va profilaktika ishlarida qo'llanilsa yaxshi samara beradi. Bunday PABK ni buzoqlar, cho'chqa bolalari, jo'jalar hayotining birinchi kunidan boshlab sut bilan birga qo'shimcha ravishda berib borilganda yosh organizm bundan tashqari ko'pchilik kasalliklarning oldini oladi.

PABK preparatini bug'oz cho'chqalarga qo'llaganda o'lik tug'ilish holatlari 7-10 % ga kamayadi. Preparat qo'llagan cho'chqa bolalari boshqalariga nisbatan baquvvat va og'ir bo'ladi. Boqilganida esa 12-19 % ko'proq go'sht chiqimi bo'ladi. Emizish vaqtidagi chiqim esa 5-15 % kamayadi.

Cho'chqa bolalari buzoqlar va jo'jalarga PABK qo'llanilganda ular rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uni sog'lom hayvonlarga qo'llanilganda turli kasallik qo'zg'atuvchilariga chidamliligi oshib, o'sish va rivojlanishi tezlashadi. Uch oy mobaynida o'sish nazoratga nisbati 15-26 foizga tezlashadi.

O'sish va rivojlanishdan qilgan cho'chqa bolalariga bu preparatlarning o'stiruvchi ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari qon hosil bo'lish tezlashib vitamin B₁₂ to'plana boshlaydi. Ovqat hazm qilish tizimida kasalliklar bo'lgan cho'chqa bolalariga preparatni berib boshlagandan 3-5 kun o'tgach oshqozonning motor funksiyasi o'z me'yoriga tushib 6-14 kun ichida sog'ayib ketadi.

Cho'chqa bolalari va buzoqlarning o'sish va rivojlanishini tezlashtirish maqsadida PABK 60 kunlikgacha ozuqasi bilan birga 5 mgk vitamin B₁₂ hisobida berib boriladi. Ye gipivitominozga uchragan cho'chqa bolalariga PABK vitamin B₁₂ bo'yiga 5-10 mgk 1 kg tirik vaznga nisbatan kuniga 2 mahaldan 5-10 kun davomida berib borish yaxshi samara berishi to'g'risida I.Ye.Mozgov o'z tadqiqotlarida (1985 y) ta'kidlagan.

Qorako'l qo'ylari ustida dastlabki tajribalarda ularni qochirishag tayyorlash va ularning otalanishi, qo'ylarni sun'iy qochirishga tayyorlash oziqlantirish darajasiga bog'liq ekanligi haqida I.S.Misenko (1984) va boshqalar o'z tajribalarida sinab ko'rganlar. To'yimli ozuqalar qanchalik ko'pchilikni tashkil etsa qorako'l terilar o'lchamlari ham shunchalik katta bo'lishini ta'kidlab o'tgan.

S.A.Lapshin (1980 y), A.L.Vorobivskiy (1982 y) lar takidlashicha ona qo'ylarni me'yorida oziqlanmasligi homila rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ona qo'ylar bug'ozlik davrida 15 kilogrammgacha vazn yo'qotadi. Bu esa rivojlanayotgan homilaga ta'sir qilib, olinishi kutilgan qorako'l teri o'lchamlari kichrayishiga sabab bo'ladi haqida ma'lumot bergan.

R.X.Haitov, A.D.Dushanov (1980) M.A.Rish, R.A.Daminov (1980) H.F.Deutech, V.R.Smith (1999 y) lar makidlashicha qorako'l qo'ylarining qonida umumiy oqsil miqdori bahor oylariga kelib 8,01 mol/l gacha kamayadi. Bug'oz hayvonlarda vitamin A, tiamin va siankobolamin miqdori keskin kamayib ketadi shularni hisobga olib ozuqasiga vitaminli qo'shimchalarni qo'shilishi muhim ahamiyatga ega.

PABK ning hayvonlar ovqat hazm qilish sistemasiga ta'sirini T.Ya.Sergeyeva, P.V.Perova va boshqalar sutning o'rniga go'sht bulyonini

qo'llashni tavsiya etdi (1952 yil) va ularning asidofil bulyon kultura ABK deb nomladi. Qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarida ABK keng qo'llanila boshladi va organizmning umumiy holati yaxshilanishiga ovqat hazm qilish jarayoni yaxshilanishini ta'minlagan. Biroq yosh hayvonlar va jo'jalarga ta'sirida bir muncha kamchiliklar bo'lib ular organizmda vitamin yetishmovchiligi, ayniqsa vitamin "B" guruhining yetishmovchiligi kuzatilgan. Shularni hisobga olib propionova asidofil bulyon kulturasi ishlab chiqilib uning asosini vitamin B₁₂ tashkil qiladi.

V.Raussew (2001 y) ma'lumotiga ko'ra qo'ylarga 20 kun davomida propionat natriy berilganda oshqozon suyuqligidagi vitamin B₁₂ miqdori 189 mol/l dan 143 mol/l ga kamayishini aniqlangan.

V.I.Dulnev (2002 y) vitamin B₁₂ (PABK) preparatining qo'ylar yo'g'on ichakning sekretor fermentativ faoliyatiga ta'sirini o'rganib, PABK bakterial ta'siri va organizmga stimullovchi ta'sirini aniqlagan.

PABK ning parrandalar organizmiga ta'sirini chet mamlakatlarning ko'pchiligi olimlari jumladan T.Ye.Burikin (1993 y), P.T.Apasiv (1998 y), G.N.Shubina, L.M.Chimurin (1978 y) laro'z tajribalarida o'rganib chiqishgan. B.F.Bessorobov va boshqalar (1975 y) parrandachilikda quruq asidofil kulturasi qo'llagan.

O'zbekiston sharoitida N.O.Farmonov (2010 y) qorako'l qo'ylarida PABK ning ta'sirini o'zining tajribalarida sinab ko'rgan va yaxshi samaraga erishgan.

Buyuk rus olimi I.I.Mechnikov hayvonlar va odamlar ovqat hazm qilish yo'lidagi mikroflaraning fiziologik ahamiyati juda muhimligini aytib, asidofil tayoqchasi muxitning qatiq bilan aralashmasi odamlar uchun ham, hayvonlar uchun ham davolash uchun hamda kasalliklarni oldini olish maqsadida qo'llashni taklif qilgan. Asidofil tayoqchasi hayvonlar uchun zararsiz mikroorganizm hisoblanib, ovqat hazm qilish yo'lida uchrab uglevodlarni parchalab, eritib sut kislotasi ishlab chiqarishda qatnashadi va oshqozon ichakning myatniksimon harakatini kuchaytiradi ferment ishlab chiqarish faoliyatini va prestaltikasimon harakatini faollashtiradi. Buning oqibatida butun ovqat hazm qilish sistemasi

fiziologik ish jarayoni tiklanadi, hazm bo'luvchi moddalarni o'zlashtirish yaxshilanadi, turli toksin zaharlarni neytrallaydi, patogen mikroorganizmlar hayoti uchun yomon ta'sir qiluvchi muhit paydo bo'ladi.

Asidofil tayoqchasi oddiy muhitda ovqat hazm qilish yo'lidagi mikroflora tarkibida doimiy uchrab turadi. Ammo ko'pginakasalliklarda va noto'g'ri oziqlantirish natijasida ichaklarda ularning soni keskin kamayib ketadi, yangi tug'ilgan hayvonlarda hayotning birinchi haftasida ham ular uchramaydi yoki juda ham kamsonli bo'ladi. Buning natijasida yosh hayvonlar umumiy ahvoli va turli ta'sirlarga o'ta sezuvsan hisoblanadi. Ovqat hazm qilish yo'liga biron bir patogen mikroorganizm tushib qolsa uning zaharini neytrallovchi mikroorganizmlar bo'lmaganligi sababli turli kasalliklarga sabab bo'ladi.

Biroq qatiq tarkibidagi muhitning ayrim kamchiliklari sababli asidofil tayoqchalari chidamsiz bo'lib, ovqat hazm qilish tizimida 6-10 soat mobaynida o'lib ketadi. Yuqoridagilarni hisobga olib ushbu mikroorganizmlarni o'stirishning yangi texnologik jarani ishlab chiqildi. Buning uchun go'sht bulyonidan foydalanilgan va ABK asidofil bulyonli kultura deb atalgan.

Keyinchalik ushbu preparat ustida olib borilgan tajribalar natijasida asidofil tayoqchasi bilan birga propionli bakteriyalar ya'ni B gurux vitaminlarini miqdoriga ijobiy ta'sir qiluvchi bakteriyalar bilan boyitilgan.

Asidofil tayoqchasi oddiy sharoitlarda ovqat hazm qilish yo'lining "doimiy vakili" hisoblanadi. Ammo ko'pchilik kasalliklarda ichaklarda uning miqdori kamayib ketadi. Ayrim vaqtlarda umuman yo'qolib ketadi. Bu esa hayvonlar umumiy ahvoli salbiy ta'sir ko'rsatib, turli xil toksinlar ta'siriga chidamliligi pasayadi. Ovqat hazm qilish yo'liga tushgan patogen mikroorganizmlar, ularga qarshi antitoksinlar yo'qligidan yuqumli kasalliklar rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Bu juda ham muhim va kerakli preparat hisoblansada oddiy qatiq tarkibida kerakli mikroorganizmlar 6-10 soat davomida yashay oladi xolos, buni hisobga olib olimlar yuqoridagi mikroorganizmlarni go'sht bulyonida o'stirib ABK asidofil bulyoni kulturasi deb nomladilar. Keyinchalik uning tarkibiga propionli bakteriyalar muhitini qo'shib (birinchi navbatda siankobalamin vitamin B₁₂)

propionli asidofil bulyon kultura PABK deb ishlab chiqara boshladi. PABK ABK ga nisbatan yaxshi samara berib hayvonlar o'sish va rivojlanishini tezlashtiradi, bug'ozlik kechishini yaxshilaydi, homilada qon aylanishiga ijobiy ta'sir qiladi va organizmning himoya funksiyasini faollashtiradi.

So'ngi yillarda 1990 yildan keyin bakterial preparatlar kombinasiyalashagan holatda ishlab chiqarila boshladi. V.V.Pospelova (1994) asidofil tayoqchasi bilan bifidobakteriyalar bir biri bilan o'zoro birgalikda qo'llanilganda o'zoro uzoq muddat har bir shtamm o'z xususiyatini saqlab qolishini isbotlagan. Hozirgi kunga kelib chet mamlakatlarda yangi bakterial preparatlar juda ham keng qo'llanib kelinmoqda. Ulardan bakterin SL, Endosporin, Enterobakterin, Primasol, Vetom, Zoonorm Zimun va boshqalar veterinariya amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Hayvonlar va qushlarda moddalar almashinuvi, umuniy rezistentlik saqlanishi, o'sishi va rivojlanishiga ABK atsidofil bul'on kultura ijobiy ta'sir etadi

Probiotiklarning muhim afzalligi bo'lib ularning hayvonlar tomonidan to'liq qayta ishlanishi, mahsulotning iste'molchilari va atrof-muhit uchun zarari salbiy oqibatlarining bo'lmasligi hisoblanadi. Ovqat hamz qilish tizimi mirkobiosenozini to'g'irlagan holda probiotiklar hayvon organizmiga har tomonlama ijobiy ta'sir etadi. Probiotik preparatlardan foydalanish organizmda metabolik jarayonlarning optimallasuvi, xo'jayin organizm uchun hayotiy muhim hisoblangan oziq moddalarning yaxshi o'zlashtirilishiga, uning immun maqomining faollashuvi va atrof-muhitning noqulay omillariga chidamliligini oshirishga yordam beradi.

Ko'pchilik klinik sinovlar natijasida shu narsa aniqlandiki, probiotiklar immunodefitsitning kelib chiqishi sabablaridan qat'iy nazar immun tizimini kuchaytiradi. Buning ustiga probiotiklar xoh u shilliq qavatning mahalliy immuniteti bo'lsin yoki gumoral yoki umumiy immunitet bo'lsin immun tizimining turli darajalarini normallashtiradi. Shunisi muhimki, probiotiklar tarkibidagi bakteriyalarda viruslarga qarshi kurash quroli – DHK ada va PHKada fermentlari mavjud.

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Vetom" seriyasi probiotik preparatlari keng qo'llanilmoqda. Bu preparatlar tarkibiga Bacillus Subtilius plazmidasiga odamning α -2 interferon genini kiritish orqali olingan Bacillus Subtilisning rekombinat shtamining liofizlangan sporali kulturasi kiradi. Shartli-patogen va patogen mikroorganizmlarga nisbatan yuqori antogonistik faolligi, biologik faol moddalarni ishlab chiqish xususiyatlaridan tashqari bu probiont-mikroblar interferonni sintezlaydi, interferon esa ushbu mikroblar preparatlarining virusga qarshi ta'sir etishini ta'minlaydi.

"Vetom-3" preparatini cho'chqa bolalarini boqishda qo'llaganlar. Mualliflar tomonidan aniqlandiki, tajriba ostidagi hayvonlarda nazorat guruhi hayvonlariga nisbatan eritrositlar miqdori 3,5% ga, gemoglobinning miqdori 8,9% ga, immunoglobulinlarning miqdori 11,3% ga oshdi.

Yangi tug'ilgan qoramol bolalari "Vetom 1.1" probiotiklari bilan boqilganda ularda to'laqonli enterobiosenozning shakllanishi kuzatiladi. Buqalarning ishtahasi, tana og'irligining o'rtacha sutkalik o'sishi oshadi.

A.N. Shust va boshqalar (2001,2002,2006) "Vetom 1.1" preparatini 5mg/kg dozada 5 kun davomida kuniga bir martadan erkak cho'chqalarni boqishda qo'lladilar. Izlanishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, erkak cho'chqalarda organizmni himoya qilishning hujayraviy va gumoral omillari oshadi, shunindak, jinsiy faolligi kuchayadi.

Simblont mikroorganizmlar negizida bir qator preparatlar: kolibakterin, bifisumbakterin, bifikol, laktobakterin, streptobifid, romakol, enteroifidin, enterotsid, bifivet, tiorensin, normoflar, laktobifadol, bifatsidobakterin, subtilin, galliferm, laktitsid, laktomikrotsikol va boshqalar ishlab chiqarilgan.

"Streptoibifid-forte" probiotik preparatini chochqa bolalariga 3-kunligidan boshlab hayon boshiga 1,5 doza hisobida 10 kun davomida dutga qo'shib ichirgan, natijada immunitetning T-hujayraviy zanjirining o'ziga xos bo'lmagan rezistentligi va faollashuvi uchun ma'sul bo'lgan tizimlarning yaqqol namoyon bo'lgan qayta qurilishi (tuzilishi) sodir bo'lgan. Tajriba guruhi hayvonlarida qon zardobining lizotsim (19,59% ga) va bakteritsid (15,37% ga)

faolligining oshishi, leykatidlarning (22,34%ga) fagositar faolligining oshishi kuzatildi. Chochqa bolalari qon zardobidagi aylanuvchi immun majmualarining soni 21,24%ga kamaydi, preferik qondagi T-limfotsitlarning nisbiy soni 17,14%ga oshdi. Bundan tashqari probiotikning bo'g'oz ona cho'chqa ratsioniga kiritilishi hayotchan cho'chqa bolalari tug'ilishini 5,52 %ga oshishiga, probiotikni cho'chqa bolalariga 3 kunligidan boshlab sutga qo'shib berish esa ularning yashab qolishini 3,58 % ga oshishiga, neonatal dioreya bilan kasallanishni 18,68 % ga kamayishiga yordam beradi, tana massasi oshishini 12,33 % ga tezlashtiradi.

Udmurtiyadagi xo'jalaiklarda tarkibida bifido va laktobakteriyalarning trik hujayralari bo'lgan "Bifitsin – M" ozuqaviy qo'shimcha keng sinovdan o'tkazilgan edi. Ozuqaviy qo'shimchaning qo'llanilishi yangi tug'ilgan hayvonlarning oshqozon-ichak kasaliklariga chidamliligini sezilarli oshirish imkonini derdi, ularning o'sishi va rivojlanishini tezlashtirdi. Yuqori davolash – profilaktik qimmat, ekologik tozaligi va qo'llanilishining fiziologikligi inobatga olinib, ushbu ozuqaviy qo'shimcha ishlab chiqarishga tavsiya etildi .

B.V. Tarakanov va boshqalarning (2002) ma'lumotlariga ko'ra cho'chqa bolalarini 15 kunlikdan 60 kunlik yoshigacha bo'lgan davrda sutga yoki ozuqaga 3-5 ml/gol hisobida laktoaminozorin probiotigi qo'shib boqish ularning yashab qolishini oshirish, o'rtacha sutkalik o'sishini 32,5%ga oshirish, cho'chqa bolasining tirik vaznini 2-oylik yoshida 3,86kg ga oshirish imkonini beradi.

Samara oblastidagi "Gidridniy" naslchilik zavodida laktoamilovarinni ishlab chiqarish sinovidan o'tkazdilar. Natijalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, laktoamilovarinni qo'shimcha oziqlantirish sifatida hayotning 10 kunidan 35 kunigacha 1 tonna kombikoriga 500 g probiotik hisobida qabul qilgan cho'chqa bolalarida o'rtacha sutkalik o'sish 17% ga ortiq bo'ldi, oshqozon-ichak qo'llarining kasallanishi nazorat guruhidagi hayvonlarga nisbatan 20% kamroq qayd etildi.

Sut kislotasi hosil qiladigan bakteriyalr negizida tayyorlangan "EMIX" probiotik preparati A.A.Kuznisov (2004) tomonidan qulunlarni (toylarni) yetishtirishda foydalanildi. Ushbu preparat shartli-patogen mikroorganizmlar,

sodda hayvonlar va chirituvchi mikrofloralarga qarshi antogonistik ta'sirga ega bo'lgan komponentlarni o'z tarkibiga oladi. U ichakni patogen bakteriyalardan himoya qiladi, antibiotikoterapiya, ozuqaning o'zgarishi, ozuqalarning yaxshi hazm bo'lishi va dezintoksikasiya jarayonlaridan o'ng ichak mikrobiosenozini qayta tiklashga yordam beradi. Preparat ichakning mikroflorasini qayta tiklash qobiliyatiga ega bo'lib, hayvonning o'sishva rivojlanishini tezlashtiradi, ularning umumiy rezistentligini oshiradi. "Emix" ning tarkibida sintetik va kimyoviy qo'shimchalarning bo'lmasligi tufayli atrof-muhitga chiqarilganda ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Preparatni bir hayvonga 100 g dozada bir oy davomida qo'llash qulunlarda (toylarda) organizmning himoya xususiyatlarini oshirish, oshqozon-ichak kasalliklarini profilaktika qilish (oldini olish), ishtahani oshirish va umumiy ahvolini yaxshilash imkonini beradi.

Bolgariyalik olimlar sut bakteriyalarining interyer ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rgandilar. Bunda *Bitidobakterium bifidum*, *Lactobacillus bulgaricus*, *Streptococcus thermophilus*lardan foydalanildi, probiotiklar qo'llanilgandan so'ng buzoqlarning qonida nazorat guruhidagi hayvonlarga nisbatan immunoglobulinlarning miqdori 362 mg% ga, gemoglobinning miqdori 1,15% ga yuqori bo'lishi aniqlandi.

Laktoamilovarin va BSL+FITO probiotiklarini buzoqlarda emizikli davrda sinovdan o'tkazish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar foydalanilgan preparatlar yemni iste'mol qilinishiga, asosiy ozuqaviy moddalarning hazm bo'lishiga, qonning biokimyoviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatdi. Bunda tajriba ostidagi hayvonlarda ohqozon-ichak kasalliklari o'lat deyarli kuzatilmadi. Olingan natijalarga asoslangan holda muallif profilaktik maqsadlarda laktoamilovorinni bir sutkada 1 g/gol dozada, BIL+FITO ni esa bir sutkada 5g/gol dozada qo'llashni tavsiya etadi.

Lactobacterium acidophilus, *Ruminococcus albus* va *Bacillus subtilus* kulturalari negizida tayyorlangan probiotik-simbointlarning ona cho'chqa va cho'chqa bolalarining o'ziga xos bo'lmagan rezistentligiga ijobiy ta'sir etishini aniqladi. Immunoglobulinlarning maksimal oshishi ushbu kulturalarni

sun'iy ravishda 48 soat interval bilan tug'ishgacha 20 kun qolgangacha qabul qilgan ona cho'chqalarda kuzatildi. Ona cho'chqalarda qonda umumiy oqsil miqdorining 20,4% ga oshishi kuzatildi, albuminlar miqdori 16,4% ga, γ -globulinlar miqdori 65,8% ga oshdi. Tajribali ona cho'chqalardan olingan cho'chqa bolalarida nazorat guruhidagi cho'chqa bolalariga nisbatan qondagi gemoglobin miqdorining 3,2% ga, leykatsitlar miqdorining 2,7% ga, gematokritning miqdorining 9% ga oshishi qayd etildi. Tajribadagi cho'chqa bolalarida eritrositlar miqdori 16,3% ga ko'proq, lekin eritrotsitlarning siametri kichikroq bo'lib, tajribadagi hayvonlarda gaz almashinuvi darajasi ancha yuqori ekanligini ko'rsatdi. Cho'chqa bolalari qon zardobining biokimyoviy tadqiq qilinishi kreatinin miqdorida katta farqlar bo'lishini aniqladi: nazorat guruhida 69,397 mkmol/l, tajriba guruhida esa 229,600 mkmol/l. Bu ichakda aminokislotalarning so'rilishining sezilarli oshishidan dalolat beradi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra cho'chqa bolalarida rastrit bilan kasallanib chiqadigan so'ng o'ziga xos bo'lmagan rezistentlikning pasayishiga olib keluvchi disbakterioz rivojlanadi, buning natijasida o'tkir va surunkali kasalliklar rivojlanadi. Organizmning himoya xususiyatlarini oshirishi uchun mualliflar "Laktobifadol" probiotigi va nuklein tabiatiga ega bo'lgan "Kompleks A" immunomodulyatorini kompleks qo'llashdan foydalanadilar .

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, preparatlar qo'llanilgandan so'ng cho'chqa bolalarida bronxopnevmoniya bilan kasallanish darajasi sezilarli pasaydi. Masalan, tajriba ostidagi hayvonlar orasida ushbu kasallikka chalinganlari 8% ni, nazorat guruhida esa 20% ni tashkil etdi. Bunda "Kompleks A" va "Laktobifadol" preparatlarini qabul qilgan cho'chqa bolalarining o'rtacha sutkalik o'sish ko'rsatkichi nazorat guruhidagi cho'chqa bolalariga nisbatan 44,7% ga yuqori bo'ladi.

Zarrachalarning kattaligi 0,1 mm dan ortiq bo'lmagan quruq kukun ko'rinishidagi ozuqaviy qo'shimcha ishlab chiqilgan bo'lib, uning tarkibida glaukonit va "Bioparin" probiotikigi komponentlar ulushiga nisbatan quyidagicha bo'ladi : probiotik 30-35; qolgani glaukonit. Mazkur ozuqaviy

qo'shimchani har kuni ratsioning quruq moddasidan 0,25% miqdorida foydalanish uni ishlab chiqaruvchilariga cho'chqalarning mahsuldorligini sezilarli oshirish imkonini beradi.

Tarkibida Lv.Acdiophilus laktobakteriyasi bo'lgan BAD Biobakton shaklidagi ozuqaviy qo'shimcha va steviyaning quruq batglaridan tarkib topgan o'simlik qo'shimchasini quyida-gi nisbatga qo'llash: BAD Biobakton- 90: o'simlik qo'shimchasi- 10 ushbu ozuqaviy qo'shimcha mualliflariga cho'chqa bolalari ohqozon-ichak yo'llari fermentativ faolligini oshirish, uglevod almashinuvini yaxshilash va ozuqalarning o'zlashtirilishini oshirish imkonini beradi.

Ona cho'chqalarning mahsuldorligini oshirish maqsadida A.V. Bruner (2005) "Intestivit" probiotigidan foydalanadi. Hammasi bo'lib kuzatuv ostida 60 ta ona cho'chqa va 150 ta emadigan cho'chqa bolalari olindi. Ilmiy-ishlab chiqarish tajriba-sining natijalari shuni ko'rsatadiki, probiotiklarni ona cho'chqalarda bo'g'ozlik davrining 95 kundan tug'ishgacha bo'lgan davrda va laktatsiyaning dastlabki 5 kunligida qo'llash sut berishni 5,2% ga va cho'chqa bolalarining tug'ilishini 4,8% ga oshirdi.

"Intestivit" probiotigidan foydalanilganda xuddi shunday natijalar D.S.Uchasov (2006) tomonidan ham olindi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, tug'ishdan oldin va tug'ishdan keyingi davrlarda ushbu preparat bilan boqilganda u eritropoez (eritrotsitlarning hosil bo'lishi) jarayoni, jigarning morofofunksional holati va biokimyoviy maqomiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa qondagi eritrotsitlar miqdorining 10,9% ga, gemoglobinning miqdorining 9,2% ga, umumiy oqsil miqdorining 2,3%ga, albuminlar miqdorining 3,2%ga, gamma-globulinlar miqdorining 7,8% ga, glyukoza miqdorining 3,8%ga, A vitaminlar miqdorining 26,7% ga, E vitamini miqdorining 10,4% ga, B2 vitamini miqdorining 9,9% ga oshishida, mogevina konsentratsiyasining va AcAT faolligining pasayishida namoyon bo'ldi. Bunda ona cho'chqalarda sut berishning 5,3% ga, undan olingan cho'chqa bolalari og'irligining o'rtacha

sutkalik o'sishi 7,8% ga va ularning yashovchanligi 5,6% ga oshganligi kuzatildi .

“Intestivit” probiotigidan cho'chqa bolalari vazni va ularning yashovchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida foydalanishda olingan ijobiy natijalarni boshqa ko'pchilik tadqiqotchilar ham o'z ishlarida keltiradilar.

T.N.Gryaznova va hamkasblari (2005) tomonidan B Subtilis va B.licheniformis shtammlarini seleksiya qilish yo'li bilan “Biod-5” yangi probiotigini ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi. Probiotik preparat keng ishlab chiqarish sinovlaridan o'tib, hayvon organizmining o'ziga xos bo'lmagan rezistentligi omillarini faollashtirishni ko'rsatdi. U qo'llanilagandan so'ng cho'chqa bolalarida leykotsitlarning fagositar faolligi 5% ga, fagositar indeksi 2,5% ga, tabiiy antitelalarning faolligi 25% ga oshdi. Bunda hayvonlarning ishtahasi ko'tariladi, ozuqaning hazm bo'lishi yaxshilanadi, tirik vaznining o'rtacha sutkalik o'sishi oshdi .

So'nggi yillarda probiotiklar alohida emas, balki boshqa biologic faol preparatlar bilan uyg'unlikda qo'llanilmoqda. Probiotiklar va oqsil xomashyosi gidrolizi mahulotlaridan foydalanganlar. Probiotik preparatlar sifatida “Siteks” ZAO (S.Peterburg) tomonidan ishlab chiqilgan siteksflar seriyasi probiotiklari tanlandi. Hayvonlarga: Lactobacillus acidophilus polisaxaridlar produtsenti va samarali antogonistlar sifatida patogen va shrtli patogen mikroorganizmlar; Ruminococcus albus Kai selyulozolit preparat; Bacillus Subtilis patogen va shartli patogen mikroorganizmlarning kuchli antogonisti sifatida; oqsil gisrolizini kuchaytirish, kanserogenez rivojlanishio darajasini pasaytirish, ichak preitaltikasini tezlashtirish va uning oziq moddalardan xoli bo'lishini normal ta'minlash uchun B.bifidum bilan Str. Thermophilus berildi .

Probiotiklar oqsil gidrolizatlari bilan birga kompleks ko'rinishda va umumiy ratsionning 2% miqdorida qo'llanilganda tajriba ostidagi cho'chqa bolalarida nazorat guruhidagiga nisbatan azot o'zlashtirilishining sezilarli ortishi kuzatildi, bu esa oqsil aslmashinuvini jadalligining oshganligidan dalolat beradi. Oqsil o'zlashtirilishining ortish samarasi muddatining uzayishi

14 kun davomida saqlanib qoladi, nazorat guruhiga nisatan tana og'irligi o'rtacha sutkalik o'sishi 7,2% ga yuqori bo'ldi, cho'chqa bolalarining yashovchanligi esa nazorat guruhiga nisbatan 2,02% ga oshdi.

Abdurafikov A.R. (2007) foydalanilgan yemlarning samarali ta'sirini ohirih uchun fermentative preparatlar (MEK CX-2 "Xostazim X"), probiotik ta'sirga ega bo'lgan preparatlar ("Probiosel", "Asidlak"), lipotron ta'sirga ega bo'lgan preparat ("Betafin") va tarkibida selen bo'lgan preparat (DAFS-25) larni qo'lladi. Muallif tomonidan yosh cho'chqalar uchun kombikormga (omuxta yemga) kiritiladigan preparatlarning optimal normasi aniqlandi, yangi avlod biologic faol moddalari preparatlaridan foydalangan holda omuxta yemlar retseptlari ishlab chiqildi va tajribalar yordamida asoslandi.

O'tkazilgan izlanishlar preparatlar almashinuv jarayonlarining yaxshilanishi, biokimyoviy ko'rsatkichlarning optimallasuvi, tajriba ositdagi hayvonlarda tan og'irligi o'rtacha sutkalik o'sishning ortishiga yordam berishini ko'rsatdi.

Probiotiklar oziq ratsionining barcha komponentlarining o'zlashtirilishiga ijobiy ta'sir etishini inobatga olib o'zlarining ilmiy ishlab chiqarish tajribalarida "Sellobakterin" probiotigini 1kg omuxta yemga 1 ga hisobida qo'lladi. Tadqiqotlar ko'ratilgan preparatning omuxta yem tarkibiga kiritilishi uning iste'mol qilinishiga salbiy ta'ir ko'rsatmasligini aniqladi. Tajriba va nazorat guruhidagi cho'chqalar berilgan yemlarni to'liq iste'mol qilishda. Tajriba guruhidagi hayvonlar tashqi ko'rinishi jihatidan "Sellobakterin" fermentli probiotigi qabul qilmagan nazorat guruhi hayvonlaridan sezilarli ajralib turdi. Ulardagi jun qoplami ham ancha yarqiroq va silliq bo'lishi, oziqlantirish va og'irligini o'lchash vaqtlarida ancha faol bo'lishi bilan xarakterlanadi. Mazkur preparatning omuxta yemlar tarkibida qo'llanilishi yosh cho'chqa bolalarini bo'rdoqiga boqish natijalarida ijobiy ta'sir etdi. Masalan, tajribalar natijalari omuxta yemlar tarkibiga sellobakterinning qo'shilishi tajriba guruhi yosh cho'chqalarida tirik vaznining sutkalik o'sish ko'rsatkichini nazorat guruhidagiga nisbatan 11,7% ga oshihida (mos

ravishda 478 g 428 g ga) va 1kg tirik vazn oshishiga sarflanadigan yem miqdorini 9,6% ga (mos ravihda 4,26 kg 4,71 kg ga) kamayishiga olib keldi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar statistic jihatdan haqiqatga yaqin bo'ldi.

Shunindek, boshqalar ham probiotik "Sellobakterin" dan foydalanadilar. Ilmiy-ihlab chiqarish tajribai Voronej oblasti Likin rayonidagi fermer xo'jaligi sharoitida o'tkazildi. Tajribalar sutdan ajratilgan cho'chqa bolalari ustida olib borildi. Izlanishlar davri mobaynida cho'chqa bolalari tarkibida 75,6% maydalangan arpa mavjud bo'lgan komponentli yem aralashmalari bilan oziqlantirildi. Aralashmaning qolgan qismining 16,1% kujara va 8,3%ini lavlagi turpi (qoldig'i) tashkil etdi. Bunda tajriba guruhidagi har bir hayvonga o'rtacha namligi 14% bo'lgan 1kg yemga 1g "Sellobakterin" to'g'ri keldi.

Tajriba guruhidagi yosh cho'chqalarning o'sishi davridagi rationida "Sellobakterin"dan foydalanish nazorat guruhiga nisbatan ular massasining o'sishini 31% ga, yalpi o'sishini 30% ga oshirdi, yem sarfini esa 23,2% ga kamaytirdi. Ko'rsatilgan farqlar esa statistic jihatdan yuqori ishonchlilikka ega bo'ldi ($P < 0,001$). O'sih davrida yosh cho'chqalarning ratsioniga fermentli probiotiklarning kiritilishi yemlarning tannarxini unchalik sezilarli oshirmadi (namligi 14% bo'lgan 1 kg yemga 2008 yil bahosi bilan 12 kopeek). Biroq tajriba guruhidagi yosh cho'chqalar tirik vaznining 1 kg ga o'sihi tannarxi 21,7% ni yoki 5,62 rublni tashkil etdi, bu esa nazorat guruhidagi hayvonlarga nisbatan ancha past ko'rsatkich hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, cho'chqa bolalarini probiotik qo'shilgan tarkibi turlicha bo'lgan yem aralashmalari bilan boqih hayvonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Cho'chqa bolalarida tirik vazn oshishining o'rtacha sutkalik ko'rsatkichi yuqori, almashinuv energiyasining mahsulot birligiga sarfi ularda 2,8-13,0 m Dj ga kam bo'ldi.

Cho'chqa bolalarida diareya kasalliklarini davolash va oldini olish uchun antagonist-mikroblar: bifisobakterin, laktobakterin, streptobifid, subalin, sporabakterin, laktobifadol, intestevit va boshqalarning 1-2, kamdan-kam

hollarda 3 shtammini saqlovchi turli probiotik preparatlardan foydalanishni tavsiya etadi. Mualliflarning ko'rsatishicha probiotiklar patogen bakteriyalar ko'payishini to'xtatib yoki hayvonlar ichagidagi patogen bakteriyalarga halokatli ta'sir etib, yangi tug'ilgan cho'chqa bolalari organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, ularda salbiy reaksiylar keltirib chiqarmaydi va dori-darmolarga chidamli mikroorganizmlar shtammlarining rivojlanib ketishiga olib kelmaydi. Cho'chqa bolalarining hayotining birinchi kunlarida probiotiklardan foydalanish ichakning xususiy normal mikroflorasining rivojlanishini tezlashtirib hamda immune tizimini shakllantirib ichakning kolonizatsion rezistentligining erta shakllanishiga yordam beradi.

Mualliflar tomonidan ishlab chiqarish tajribalarida cho'chqa bolalarida salmonellezning oldini olish maqsadida laktoamilovarin probiotik preparatidan foydalanildi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, laktoamilovarinidan foydalanish kasalliklarning kelib chiqish xavfini 6,3% ga va o'latni 2,0% ga kamaytirib sezilarli samara beradi va nazorat guruhidagi cho'chqa bolalariga nisbatan tirik vazn oshihining o'rtacha sutkalik ko'rsatkichini 41,0% ga oshihini ta'minlaydi.

Hayvonlarning mahuldorligi va yashovchanligiga Siteksflor 1 va Siteksflor 5 probiotiklarining ta'sirini aniqlash maqsadida Bryansk oblastidagi "Kultura" agrofirma sharoitida tajribalar o'tkazdilar. Siteksflor 1 preparatining ta'sir etuvchi tarkibiy qismi bo'lib tibbiy-biologik xususiyatlariga ko'ra maxsus tanlab olingan sut kislotasi ishlab chiqaruvchi *Lactobacillus acidophilus* bakteriyalari hisoblanadi. Uning ta'sir prinsipi hayvon organizmida, birinchi navbatda uning ichagida *Lactobacillus* avlodiga mansub bakteriyalarning tarqalishiga asoslangan. Preparatning tir kulturalari patogen va shartli patogen mikroorganizmlarga nisbatan yaqqol namoyon bo'ladigan antagonistik faollikka ega bo'lib, temir, kaltsiy va boshqa ko'pchilik mikroelementlarning o'zlashtirilishini yaxshilaydi, katta miqdorda immunoglobulin ajratadi, gemoglobin darajasi va almahinuv jarayonini normallashtiradi, organizmning infeksiya, zaharli va boshqa agentlarga

chidamliligini oshiradi. Siteksflor 5 probiotigining tarkibiga ichakning ijobiy mikrofloraning shakllanishiga qulay ta'sir etuvchi bifidumbakteriyalar va termofil streptokokklarning simbiotik kulturalari kiradi. Probiotik vitaminlarni faol sintezlaydi, mineral, oqsil va yog' almashinuvini normallashtiradi, qondagi xolesterin darajasini boshqaradi, immun maqomini tiklaydi va saqlab turadi.

O'tkazilgan tajribalar asosida aniqlandiki, sut beradigan ona cho'chqalarga probiotiklar berilishi qo'shimcha 6-11% cho'chqa bolalarini saqlab qolish imkonini berdi.

Krasnoyarsk olimlar tomonidan ishlab chiqilgan "Mikrobiovit Enisey" preparatidan foydalandi. Uning ta'siri hayvonlarning oshqozon-ichak yo'llarida foydali mikroflora tomonidan oqsillar, yog'lar va uglevodlarning parchalinishiga yordam beruvchi fermentlarining ishlab chiqarilishiga asoslangan. Fermentlar esa o'z navbatida hayvon tomonidan ozuqaning yaxshi o'zlashtirilishiga ijobiy ta'sir etdi. Ilmiy-xo'jalik tajribalari Krasnoyarsk o'lkasining Yemelyanov rayonidagi "Elita" YoAJ da bo'rdoqiga boqilayotgan yirik oq zotli cho'chqa bolalari ustida o'tkazildi. Izlanishlar natijalariga asoslanib mualliflar quyidagicha xulosaga keldilar. Bo'rdoqiga boqilayotgan cho'chqa bolalarining oziq ratsioniga 1 va 2 g miqdorda "Mikrobiovit Yenisey" preparatining kiritilishi ularning o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, 1kg tirik vazn oshishiga sarflanadigan yem sarfini 13,2 va 11,2% ga kamayishiga va 1s o'sishning tannarxning 10,9 va 10,2% ga kamayishiuga yordam beradi.

Probiotiklarning cho'chqalarning mahsuldorlik sifatiga ijobiy ta'siri haqida, o'z ishlarida aytib o'tganlar.

Probiotiklar boshqa hayvonlarni yetishtirishda ham qo'llaniladi. Bolgariyalik tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra buzoqlarning ratsioniga (Bif. Bifidum, Lac. Bulgarucu, Lac. Casei, Str.thermophilus) sut kislotasi ishlab chiqaruvchi bakteriyalarni turli nisbatlarda qo'shilishi hayvonlarning immunologic maqomiga salbiy ta'sir etadi. Buzoqlarda qon zardobida

immunoglobulin va gemoglobulinlarning miqdori mos ravishda 362-450 mg% va 0,78-2,62% ga oshdi. Shuningdek, mualliflar tomonidan buzoqlarda kasallanish darajasining pasayishi va oziqning o'zlashtirilishining oshishi tendentsiyasi aniqlandi.

Buzoqlarda o'tkazilgan ilmiy-ishlab chiqarish tajribalarining ko'rsatishicha, buzoqlarga "Laktobif" va "Biosan" probiotiklarini sutga qo'shib berish oshqozonning kirish qimida fermentatsiya jarayonini faollashtiradi. Masalan, AJK va umumiy azotning miqdori sutga laktobif qo'shilganda 21,0 va 12,0% ga, biosan qo'shilganda 52,0 va 19,0% ga, uyg'unlashgan holda qo'llanganda esa 6,6 va 32,4% ga oshdi. Bunda katta qorinda omniak konsentratsiyasining pasayishi qays qilindi.

Laktobakterin, fitoprotiotiklar o'simliklar o'tchil qismidan ajratib olgan suloqlik(qoncho'p, oddiy qoraqat, yo'ng'ichqa) va mikroelementlar negizida tayyorlangan kompleks (uyg'unlashgan) preparatdan foydalandi.

Muallifning ta'kidlashicha, buzoqlarga uyg'unlashgan probiotiklar va mikroelementlar berilishi nazorat guruhiga nisbatan butun tajribalar davomida fiziologik normada saqlangan qon tarkibida gemoglobin, eritrositlar, leykositlar va gematokritining optimal miqdorida bo'lishini ta'minladi. Bir-biriga nisbatan sinerik bo'lgan Bacillus Subtilus va B.licheniformis mikrob kulturalarining ikkita shtammini o'z ichiga olgan "BioPlyus2B" preparatining tavsifini keltiradi. Mazkur probiotik Yevropa mamlakatlari kengashi qoshidagi komisiya tomonidan ozuqaviy antibiotiklarga alternative sifatida doimiy qayd qilingan birinchi preparat hisoblanadi. BioPlyus 2B preparatining hayvonlarga foydali ta'siri ko'plab omillar bilan tushuntiriladi. Ushbu probiotikning bakteriyalari dipikolin kislotasi (ichakning PH darajasini stabillaydi), yog' kislotalari (kasallik keltirib chiqaruvchi bakteriyalarning rivojlanishini to'xtatadi), bakteriosinlar (ichakda tarqalib patogen mikroblarni siqib chiqaruvchi bakteriyali subetantsiyalar), bacterial fermentlarni (patogen mikrofloralari ozuqa muhitidan mahrum qilib ozuqaning yaxshi o'zlashtirilishiga yordam beradi) sintezlaydi. BioPlyus 2B organizmning immune tizimini

kuchaytiruvchi organizmga notanish bo'lgan bakteriyalarga ega. Bularning hammasi organism immunitetini o'zlashtirish bilan birga, shuningdek, organizmda xususiy laktobakteriyalarning rivojlanishiga yordam beradi. BioPlyus 2B probiotigining davolash-profilaktika va iqtisodiy nuqtai nazardan istiqbolli ekanligi isbotlangan. Ushbu preparatning qo'llanilishi o'sishning ozuqaviy antibiotic stimulyatorlaridan voz kechish va ekologik jihatdan toza bo'lgan mahsulot olish imkonini beradi.

A.V.Malkov va boshqalarning (2007) fikricha, hayvonlarning go'sht va sut mahsuldorligini oshirish, o'sish va rivojlanishning jadal borishini ta'minlash uchun to'laqonli ozuqalardan foydalanishni talab etadi. Bunda probiotiklarni hayvonlar ratsioniga kiritish muhim va fiziologik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Mualliflarning takidlashlaricha, "Sellolaktola" probiotigidan foydalanish buzoqlar sutdan chiqqandan keyingi davrda oshqozonning kirish qismidagi foydali mikrofloraning shakllanishiga yordam beradi, hayvonlarda 1 kg tirik vaznga oziq sarfini o'rtacha 23,6% ga kamaytirilganda yuqori o'sishni tezlashtiruvchi samara kuzatiladi.

Buzoqlarning oshqozon-ichak yo'llari funksiyasiga probiotiklarning ijobiy ta'sir etishi va ovqat hazm qilish organlari kasalliklarini kamaytirishini tadqiqotchilar o'z ishlarida ta'kidlaydilar.

Bolgariyalik tadqiqotchilar o'z ishlarida qo'zilarga yo'ng'ichqa pichani va "Bio-Pro-1" probiotigini 1g/sutka dozada berish bo'yicha tajribalari natijalarini keltiradilar. Tajriba ostidagi hayvonlarda tirik vaznning o'rtacha sutkalik o'sish ko'rsatkichi nazorat guruhida 188g va tajribada 196g bo'lib, ular o'rtasidagi farq 4,3%ni tashkil etdi. L.kozelov va boshq. (2005) to'qimalarga (hali tug'magan urg'ochi qo'ylari) 60 kun davomida 400ml "Lactina" Bolgariya probiotigi qo'shilgan o'tloq pichani va konsentratlar berishgan. Tajriba guruhida tirik vaznning o'sishi nazorat guruhidagiganisbatan 4,9% ga ortiq bo'ldi.

Probiotiklar mo'ynali hayvonlarni yetishtirishda ham keng qo'llaniladi.

Quyohlarni yetishtirishda aktitoksik faollikka ega bo'lgan probiotiklardan (MI, MIK va RKMB) foydalanilgan. Tajribalarni o'tkazish davomida muallif tomonidan quyohl terisi ishlab chiqarish texnologik siklida probiotiklarni qo'llashning samarali sxemasi ishlab chiqildi va ishlab chiqarishga tavsiya etildi. Tavsiyalarga binoan, preparatlar granulalangan quruq yemga uni bevosita tarqatish oldindan qo'shiladi. Preparatning dozasi hayvonning yohiga bog'liq bo'lib, bitta sut emadigan quyohlchaga probiotiklar 25 mln.m.t. dozada, katta yoshdagi quyohlarga esa 50 mln.m.t. dozada MI va MIK probiotiklari 7 kun interval bilan, RKMB probiotigi 14 kun interval bilan beriladi.

Probiotiklarning qo'llanilishi mahuldorlikni ohirdi, quyohlarning tirik va go'sht vazni, teri va go'sht sifati oshdi. Bunda tajriba ostidagi quyohlarda nazorat guruhidagiga nisbatan eymerioz kasalligi kuzatilmadi.

Tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, quyohl ratsioniga probiotiklar (*Enterococcus faecium* EF 2019) va fitobiotiklarning ("XTRACT") kiritilishi ular vaznining ohishi, ozuqaning o'zlashtirilishining yaxshilanishi, o'latning kamayishi, go'shtning fizik-kimyoviy xususiyatlarining yaxshilanishiga olib keldi.

M.P.Fyodorova (2007) muzloq tuproqlarda yetishtirilgan *Bacillus subtilis* bakteriyasi shtammlari negizida tayyorlangan probiotik preparatlarning samaradorligini aniqlash maqsadida Hangalask yurtidagi "Soxault" hayvonchilik xo'jaligida kumushrang-qora tulkilarda kuyikish va homiladorlik davrida ilmiy-ishlab chiqarish tajribasi o'tkazdi. Tajriba ostidagi tulkilarga individual tarzda *Saxabaktisubtil*, *Nordbakt* probiotiklari va *Bacillus Sutilis* bakteriyalari shtammalridan tayyorlangan TNP-3 suspenziyalari berildi. Preparatlardan foydalanish ichakning normal mikoflorasi vakillarining oshishiga, potensial enteropatogenlar miqdorining kamayishiga imkon berdi, tulki bolalarining yashovchanligini va teri mahsuloti sifatinini oshirdi.

Probiotiklar, shuningdek, parrandachilikda ham katta muvofaqiyatlar bilan qo'llanilmoqda. V.Georgieva va boshqalarning (2006) ma'lumotlariga

ko'ra, tarkibida Bolgariyada an'anaviy foydalanib kelinayotgan 5 ta mikroorganizmlar: *L.bulgaricus*, *L.acidophilus*, *L.helveticus*, *L.lactis*, *St.thermophilus* va *Entrococcus facium* bakteriyalarining liofillangan toza kulturalaridan iborat bo'lgan laktin probiotigini broyler jo'jalarga berilishi ularga ijobiy ta'ir ko'rsatadi. Probiotiklar 0,06% (boshlang'ich davr) va 0,03% (yakuniy davr) miqdorida qo'hiladi. Aniqlanishicha, probiotiklar berilgan jo'jalarda boshlabg'ich davrda oziqning o'zlashtirilishi nazorat guruhidagi jo'jalarga nisbatan 10,2% ga yaxshilandi. Probiotiklardan parrandachilikda ijobiy foydalanilishini boshqa tadqiqotchilar ham o'z ishlarida ta'kidlaganlar.

3. XUSUSIY TEKSHIRISHLAR

3.1.Xo'jalikning umumiy tavsifi

Men bitiruv malakaviy ishini bajargan “Orzu” fermer xo'jaligi asosiy yo'nalishi chorvachilik bo'lib, iqlimi yozda issiq va qishda sovuq, bahor va kuz oylarida yog'ingarchilik o'rtacha me'yordan kam bo'lib, quruq havo iqlimi hukmronlik qiladi. “Orzu” fermer xo'jaligi tuman markazidan 45 km uzoqlikda, Sharq tomonda joylashgan bo'lib, shimol tomondan “Shoxrux” qishlog'i fermer xo'jaligi bilan, janub tomondan “Ko'ksoy” fermer xo'jaligi, g'arb tomondan “Guliston” fermer xo'jaligi bilan chegaradosh.

Xo'jalikning umumiy yer maydoni 250 gektarni tashkil etadi. Shundan sug'oriladigan yer 100 gektar. Jumladan: beda 50 ga, g'alla 50 ga, bo'lib, bedadan gektariga 133 sentner, g'alladan gektariga 22 sentnerdan hosil olinadi.

Chorvachilik bo'yicha asosiy yo'nalish qo'ychilik bo'lib 200 bosh qo'y mavjud. Shulardan:

- 1.Ona qo'y -100 bosh
- 2.Qo'zilar – 60 bosh
- 3.To'hlilar -30 bosh
4. Qo'chqor – 10 bosh

Bundan tashqari qoramolchilik mavjud bo'lib qo'yidagi mollar mavjud .

- 1.Sog'in sigir – 25 bosh
- 2.G'unojin -15 bosh
- 3.Naslli buqalar – 5 bosh
4. Buzoq – 20 bosh

Chorvachilik tarmoqlari bo'yicha xarakteristika.

Aholini go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish maqsadida hukumatimiz tobora g'amxo'rlikni oshirmoqda. Keyingi yillarda shaxsiy fermer xo'jaligining keltirilishi aholi jon boshiga go'sht, sut mahsulotlari bilan ta'minlashni, sanoatni jun va qorako'l teri xom ashyosi bilan taminlashni yaxshiladi. Bu esa qorako'lchilikni rivojlantirishda salmoqli hissa qo'shmoqda.

Fermer xo'jaligida 65 bosh qoramol mavjud bo'lib, shundan 25 tasi sigir, 15 ta g'unajin, 5 ta naslli buqa, 20 tasi buzoq. Yozda hayvonlar ko'k massa bilan, qishda esa senaj, silos, beda pichani, somon, lavlagi hamda dag'al hashaklar bilan oziqlantiriladi. Sog'in sigirlarga sog'ish paytida konsentrat oziqalar beriladi, har bir boshga 2-5 kg dan, yangi tug'ilgan buzoqlar 20 kun onasi bilan saqlanib, so'ngra alohida bo'zoqxonalarga ajratiladi. Qo'ylar yaylovda boqiladi. Qo'zilatish mavsumida issiqxonada saqlanadi va qish uchun saqlangan zahira dag'al oziqalar va konsentrat oziqalar bilan boqiladi.

Mollar asosan tashqarida, ya'ni yayratish maydonlarida, yaylovlarda saqlanadi va boqiladi. Yoz oylari faqat sog'in sigirlar sog'ish vaqtlarida bog'lanadi. 1 oylikdan 3 oylikgacha bo'lgan buzoqlar buzoqxonalarda guruhli saqlanadi. Qish oylarida yopiq binolarda saqlanadi. Go'nglar bir joyga to'planib, maxsus traktorlarga orilib chiqariladi. Bino ichidan chiqarish qo'lda bajariladi. Bug'oz mollar alohida qo'ralarda saqlanib, faqat quruq xashak bilan oziqlantiriladi. Tug'ishiga 1,5 oy qolganda tug'dirish xonasiga o'tkaziladi va ratsion asosida boqilib, parvarish qilinadi. Suv vodoprovod va ariqdan beriladi.

3.2.Gipotrofik tug'ilgan qo'zilar organizmiga Sat-som preparatining ta'siri.

Tadqiqotlarimiz Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani To'ra qishlog'idagi qo'ychilikga ixtisoslashgan "Orzu" fermer xo'jaligida, Samarqand qishloq xo'jaligi institute veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti vivariyasida Yuqoridagi ma'lumotalardan ma'lum bo'lishicha fiziologik jihatdan yetilgan bo'lsala a'zo tizimlari tarfofunksonal jihatdan to'liq rivojlanmagan va vazni juda kichik hayvonlarning tug'ili gipotrofik tug'ilgan hayvonlar jumlasiga kiradi. Gipotrofik holatda tug'ilgan qo'zilarida ochiqish va emish reflekslarini pasayishi tashqi taassurotlarga befarqlik va immun tanqisligi kabi belgilar kuzatiladi. Adabiyot ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha gipotrofik tug'ilgan hayvonlarni davolashda garmonoterapiya, vitaminaterapiya, fermentoterapiya, proteinoterapiya, sitotoksnoterapiya kabi usullardan foydalanadi.

Sitotoksinoterapiya (A.A.Bogomoles) organizmga sitotoksinlar yuborish yo'li bilan biostimulyatorlar hosil qilishga asoslangan davolash usuli. Veterinariya amaliyotida ASS (antiretikulyar-sitotoksinli zardob) surunkali yallig'lanishlarni (bronxopnevmoniya, plevrit, dermatit, qiyin bituvchi yaralar va b.) davolashda qo'llaniladi. Sitotoksinli zardoblar hayvonlarni turli to'qima yoki a'zolarning hujayraviy elementlari bilan eshlash orqali olinadi.

To'qima preparatlari bilan davolash usuli bugungi kunda eng ko'p qo'llanilayotgan nospesifik stimullovchi usullardan biri hisoblanib, hayvon yoki o'simliklar to'qimalarini konservasiya qilish yo'li bilan olingan preparatlarni profilaktik va davolash maqsadida organizmga yuborishga asoslanadi. Yo'ldosh ekstrakti, gepastimulin va fexoselen (Q.N.Norboyev, B.B.Bakirov). to'qima preparatlari veterinariya fani va amaliyotining eng so'ngi yutuqlaridan hisoblanadi.

Vikar tepapiya organizm hayoti uchun zarur bo'lgan moddalar kam ishlab chiqarilgan yoki tashqaridan kam qabul qilingan paytlarida ularning o'rnini to'ldirishga asoslangan davolash usuli bo'lib, qon quyish, gormonoterapiya, vitaminoterapiya, mineral moddalar bilan davolash kabi qator usullar kiradi.

Gormonoterapiya - ichki sekresiya bezlarining faoliyati buzilgan hollarda qo'llaniladi. Masalan, erkaklik jinsiy gormonlari (andosteron testosteron) impotensiya, sterilitet paytida, urg'ochilik jinsiy gormonlari (sinestrol, progesteron, gravogarmon) tuxumdon kasalliklari, tug'ruk patologiyasi va bachadonning qisqarish qobiliyatini kuchaytirish maqsadida, buyrak usti bezi mag'iz qavati gormonlari (kortikosteroidlar, adrenalini, noradrenalin) va pustlok qavati gormonlari (prednezolon va b.) karaxtlik, kollaps, qon ketishi, zaharlanish, bronxial astma va bir qancha allergik kasalliklarni (kon'yunktivit, keratit, ekzema, tendinit, miozit, artrit) va revmatizmlarni davolashda, oshqozon osti bezi gormonlari, (insulin) qandli diabet va jigar kasalliklarida ko'llaniladi.

Gormonoterapiyada quyidagi qoidaga amal qilinadi: 1. Gormonal preparatlar organizmga aksariyat hollarda parenteral yo'llar bilan yuboriladi. 2. Gormonning miqdori hamda u bilan davolash kursini belgilashda individuallik tamoyiliga kat'iy amal qilinadi.

Gormonoterapiya kupincha funksional buzilishlar kuzatilgandagina yordam beradi. Endokrin tizimning organik o'zgarishlarida esa gormonoterapiya nospesifik stimullovchi terapiya bilan birga qo'llaniladi.

Vitaminoterapiya ko'pincha vitaminlar organizmga ehtiyojdan kam miqdorda tushganda yoki oshqozon-ichaklarning kasalliklari oqibatida ularning so'rilishi yomonlashgan paytlarda qo'llaniladi. Masalan, trivit, tetravit, vitaminli baliq yog'i, C, B₁, B₆, B₁₂ vitamini kabi preparatlarni yoki vitaminlarga boy diyetik oziqalarni qo'llash.

Mineral moddalar bilan davolashda organizmga ular tuzlarining oziqa bilan talab darajasidan kam miqdorda tushishidan kelib chiqadigan kasalliklarni (osteodistrofiya, buqoq, burang va b.) davolashda makro- va mikroelementlar tuzlari ishlatiladi, hamda boshqa davolash usullari bilan birgalikda qo'llaniladi.

Fermentoterapiya ham vikar terapiyaning bir turi bo'lib, organizmga fermentlar yetishmaganda ularning preparatlari ko'llaniladi. Masalan, sun'iy va tabiiy oshqozon shirasi, pepsin kabilar gastrit va dispepsiyani davolashda ishlatiladi. Bunda fermentlar oqsillarni polipeptidlar yoki kichik molekulali peptidlargacha parchalaydi. Sun'iy oshqozon shirasi (1 litr distillangan suv, 5 ml xlorid kislotasi, 10 g medisina pepsini) qo'zilarga 30-50, cho'chqa bolasiga 15-20 ml ichiriladi. Tabiiy oshqozon shirasi oshqozon-ichaklar sekresiyasi pasayganda qo'llaniladi, chunki uning tarkibida pepsin va xlorid kislotasidan tashqari shirdon fermenti xisoblangan lipaza, gastromukoproteidlar xloridlar, fosfatlar va ba'zan vitaminlar bo'ladi. Tripsin proteolitik ferment bo'lib, nekrotik to'qima va fibroz o'smalarni eritish, quyuk sekret, ekssudat va kon ivimasini suyultirish xususiyatiga ega. Ximozinogen shirdon shilliq pardasidan tayyorlanadi.

Nospesifik stimullovchi terapiya parchalash yoki eritish yo'li bilan tayyorlangan qon, oqsilli moddalar, to'qima preparatlaridan davolash maqsadlarida foydalanishni ko'zda tutadi. Bu usulning asosini dori vositalarini qo'llash bilan asab tizimshshng trofik funksiyasiga ta'sir etish orqali patologik jarayonni yo'qotish tashkil etali.

Amaliyotda proteinoterapiya, seroterapiya, gemoterapiya, gistolizatoterapiya, sitotoksinoterapiya, to'qima preparatlari bilan davolash kabi nospesifik stimullovchi terapiya usullaridan organizmning himoyalaniish va immunobiologik xususiyatlarini oshirish, nospesifik immunitetni yaxshilash maqsadlarda foydalaniladi.

Proteinoterapiya turli xildagi oqsil moddalarni, shu jumladan qon zardobi, kasal hayvonning o'z qoni yoki boshqa hayvon qonini parenteral yo'llar bilan davolash maqsadida organizmga yuborishni anglatadi.

Organizmda oqsillar sintezlanishi bilan bir vaqtda ularning paranekrozi ham kuzatiladi, ya'ni oksillar denaturasiyaga uchraydi. Bunda oqsilning bir qismi parchalanib ketse, ma'lum qismi esa yangi molekulyar birikmalarni hosil qilishda qatnashadi va boshqa bir yangi funksiyani bajaradigan bo'lib qoladi. Ya'ni bu komplekslarning ba'zilar katalizatorlik vazifasini bajarsa, ikkinchilari nerv impulslarini tashiydi, uchinchilari - to'qimalardagi o'tkazuvchanlik va o'sish jarayonlarini ta'minlaydi. Hosil bo'lgan oksil chiqindilarining bir qismi organizmdan tashqariga chikarilib tursa, ma'lum qismi oqsil yoki boshqa moddalar bilan kayta birikib yuqori faollikka ega bo'lgan yangi biokomplekslar sintezigt ishtirok etadi. Ma'lumki, barcha fermentlar oksillar hisoblanadi. Shuning uchun ham parenteral yo'llar bilan yuborilgan oqsil organizmda -moddalar sintezini tezlatish bilan stimullovchi ta'sir etadi.

Bizlar gipotrofik tug'ilgan qo'zilarni davolashda Rossiyada ishlab chiqarilgan Sat-som preparatidan foydalandik. Tajribalar uchun gipotrofik tug'ilgan qo'zilardan 15 bosh ajratib oldik va 3 ta o'xshash guruhga bo'lib olindi va quyidagi tartibda tajribalar o'tkazildi.

Tajriba o'tkazish tartibi

jadval №1

№	Guruhlar	Hayvonning bosh soni	Davolash muolajalari	Kuzatishlar davomiyligi (kun)
1	Nazorat	5		45
2	Tajriba	5	Tetramak 1 boshga 2 ml haftasiga bir marta, primeks 20 gr 1 boshga	45
3	Tajriba	5	Sat-som 1 ml terisi ostiga yuborildi va primeks 20 gr 1 boshga	45

Jadvaldan ko'rinib turibdiki birinchi nazorat guruhiga hech qanday muolajalar o'tkazilmadi. ikkinchi tajriba guruhiga 2 ml.dan muskul orasiga tetramag yuborildi. 45 kun davomida oziqasiga tarkibiga primeks 20 grammdan qo'shib borildi. Uchinchi tajriba guruhiga esa Sat-som tajribaning birinchi kunida 1 ml dozada muskul orasiga yuborildi. Takroran har 15 kundan keyin yana shu dozada yuborilib borildi. Natijalarni aniqlash maqsadida tajribaning boshida, o'n beshinchi, o'ttizinchi va qirq beshinchi kunlarida qo'zilarning tirik vazni o'lchab borildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

“Sat-som” preparatining gipotrofik tug’ilgan qo’zilar o’sish va rivojlanishiga ta’siri

Jadval № 2

№	Guruhlar	Qo’zilar boshi soni	Davolash tartibi	Tekshirilgan kunlar			
				Tajribadan oldin	15	30	45
1	Nazorat	5		15	15,5	23,5	25,0
2	Tajriba	5	Tetramag 2 ml bir boshga, haftasiga 1 marta, primeks 20 gr	15	17,0	26,0	30,0
3	Tajriba	5	Sat-som 1 ml dozada terisi ostiga yuborildi	15	22,0	29,0	36,5

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki nazorat guruhidagi qo’zilar tirik vazni tajriba boshida o’rtacha 15 kgni, tajriba oxirida esa 25 kg ni tashkil etib, kunlik o’sish o’rtacha 161 grammni tashkil etdi. Ikkinchi tajriba guruhida esa kunlik o’sish o’rtacha 188 grammni tashkil etdi. Uchinchi tajriba guruhida esa kunlik o’sish o’rtacha 250 grammni tashkil etdi.

4. VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH VA IQTISODIYOTI

1. Davlat veterinariya xizmatining lavozimli shaxslari tomonidan jarimalar O'zbekiston Respublikasining veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilganda qo'llaniladigan (agar bu qoida buzishlar amaldagi qonunchilik bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortishni taqozo kilmasa) ma'muriy javobgarlik chorasidir.

2. Hayvonlarni karantinga qo'yish qoidalarini va boshqa veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish, epizootiyalarga qarshi kurashish choralarini ko'rmaganlik fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismigacha, mansabdor shaxslarga esa - ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Davlat veterinariya nazorati organlariga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 109-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Quyidagilar Davlat veterinariya nazorati organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasi qo'llanishga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat veterinariya inspektori va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar (Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari) Bosh Davlat veterinariya inspektorlari, Temir yo'l Bosh Davlat veterinariya inspektori - eng kam ish haqining ikki baravarigacha miqdorda.

Tumanlar, shaharlarning Davlat veterinariya inspektorlari, chegara tekshiruvchi veterinariya punktlarining boshliqlari, dezinfeksiya-yuvish stansiyalari va punktlaridagi veterinariya nazorati boshliqlari, uchastka veterinariya shifoxonalarining, veterinariya uchastkalarining mudirlari, veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalarining mudirlari-eng kam ish haqqining bir baravarigacha miqdorda jarima solishga.

Jarima miqdori har bir holat uchun individual belgilanadi. Bunda albatta qilingan nojo'ya harakatlar va buning oqibatida kishilar sog'ligi va chorvachilikka yetkazilgan zarar e'tiborga olinadi.

3. O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida" gi qonunning 9,21 moddalarida veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilganda ma'muriy jazo jarima sifatida solinishi va jarima to'lovlari viloyatlar va Toshkent shahrining epizootik fondlari jamg'armasiga o'tkazilishi belgilangan va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 109, 259 moddalarida ham qayd etilgan.

4. Veterinariya yoki zootexniya qoidalarini buzish hayvon yoki parrandalar epidemiyasi (epizootiya tarqalishiga, ularning yalpi kirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlar kelib chiqishga sabab bo'lsa aybdor shaxslarga nisbatan materiallarni prokuratura organlariga yuborishga majburdirlar.

5. Hayvonlarni karantinga qo'yish va boshqa veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish, epizootiyaga qarshi kurash choralarini ko'rmaganlik haqidagi bayonnoma ekshiruv dalolatnomasiga asosan ikki nusxada tuziladi. Bayonnomada shu bayonnoma, tuzilgan sana, joy, bayonnoma tuzgan shaxsning familiyasi, ismi, lavozimi, huquqbuzarlikning shaxsiga oid ma'lumotlar, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va huquqbuzarlik to'g'risidagi normativ hujjat, agar moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa buni ham ko'rsatib o'tish kerak. Bayonnomaning bir nusxasi nojo'ya harakatlar qilgan shaxsga topshiriladi, ikkinchi nusxasi tegishli davlat veterinariya tashkilotida qoladi.

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilganligi to'g'risidagi bayonnoma veterinariya Bosh boshqarmasi boshligi, o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari, mutaxassislari, shuningdek boshqarilish darajasidan qat'iy nazar barcha Davlat veterinariya xizmati rahbarlari, veterinariya vrachlari, veterinariya feldsherlari (texniklari) tomonidan tuzilishi mumkin.

Basharti, fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik vaqtiga e'tiroz bildirmasa va unga solinadigan jarima miqdori eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan oshmasa, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga hollarda bayonnoma tuzilmaydi. Jarima tulaganligi to'g'risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiya beriladi. Basharti fuqaro o'ziga solinadigan jarimaga e'tiroz

bildirsa, u holda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 279-moddasiga muvofiq bayonnoma tuziladi.

Bayonnoma uni tuzgan shaxs va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanadi, guvohlar va jabrlanuvchi bo'lgan taqdirda esa - bayonnoma mazkur shaxslar tomonidan ham imzolanadi.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomani imzolashtan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga bu haqda yozib qo'yiladi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomaning mazmuni yuzasidan bayonnomaga ilova qilinadigan tushuntirish va muloxazalarini berishga, shuningdek mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon etishga haqlidir.

Bayonnoma tuzish vaqtida huquqbuzarga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 294-moddasida ko'zda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususida bayonnomaga yozib qo'yiladi.

6. Bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxsga yuboriladi.

7. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish mazkur ishni ko'rib chiqishga vakolatni mansabdor shaxs tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar olingan kundan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida shu huquqbuzarlik sodir etgan joyda ko'rib chiqiladi.

Ishni ko'rib chiqishni ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs o'zini tanishtirishdan boshlaydi. Shundan so'ng ma'muriy huquqbuzarlikka tortilayotgan shaxsga va ishni ko'rib chiqishda qatnashayotgan shaxslarga ularning huquqlari va vazifalarini tushuntiradi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani o'qib eshittiradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish vaqtida ishni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs: ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyini, mazkur shaxs uni sodir etishda aybdor, aybdor emasligini, uning ma'muriy

javobgarlikka tortilish-tortilmasligini, javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar bor-yo'qligini, mulkiy zarar yetkazgan-yetkazmaganligini, shuningdek ishni to'g'ri hal etishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashi shart.

8. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs ishni ko'rib chiqish paytida bayonnoma yuritadi. Unda:

1. Ish ko'rib chiqilgan sana.
2. Ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxsning lavozimi va ismi, sharifi.
3. Ko'rilayotgan ishni mazmuni.
4. Ishda qatnashuvchi shaxslarning hozir bo'lgan-bo'lmaganligi haqidagi ma'lumotlar.
5. Ishni ko'rishda qatnashuvchi shaxslarning tushuntir ishlari, ularning iltimoslari va bu iltimoslarni ko'rib chiqish natijalari.
6. Ishni ko'rib chiqish paytida o'rganilgan hujjatlar va ashyoviy dalillar.
7. Qabul qilingan qarorni o'qib eshittirish to'g'risidagi ma'lumotlar va qaror ustidan shikoyat berish tartibi va muddatlari tushuntirilganligi ko'rsatilgan bo'ladi.
8. Ma'muriy huquqzuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish bayonnomasi ishni ko'rib chiqqan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.
9. Mansabdor shaxs ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqib, shu yuzasidan qaror chiqaradi.

Qarorda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak: qaror chiqargan mansabdor shaxsning ismi, sharifi, ish ko'rib chiqilgan sana, ish ko'rib chiqilayotgan holatlarining bayoni, mazkur ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat, ish yuzasidan qabul kilingan qaror.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi. Ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi bayonnomaga qo'llanilgan jazo to'g'risida tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

10. Mansabdor shaxs ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1. Ma'muriy jazo qo'llanish to'g'risida.

2. Ishni yuritishni tugatish to'g'risida.

Ishni yuritishni tugatish to'g'risidagi qaror og'zaki ogoxlantirish e'lon qilinganda, shuningdek: ma'muriy huquqbuzarlik hodisasi yoki alomati yo'q bo'lsa, huquqbuzarlikni sodir etish paytida shaxs o'n olti yoshga to'lmagan bo'lsa, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs aqli noraso bo'lsa, amnissiya vaqti chiqishi, agar u ma'muriy jazo chorasini yo'nalishini bekor qilsa, ma'muriy javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor kilingan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytiga kelib ushbu huquqbuzarlik aniqlangandan boshlab ikki oydan oshgan bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan oshgan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt yuzasidan majburiy jazo qo'llanish to'g'risida mansabdor shaxs qaror chiqargan bo'lsa yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tugatish to'g'risida chiqargan qaror bekor qilinmagan bo'lsa, shuningdek mazkur fakt yuzasidan jinoyat to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan bo'lsa, shaxs ishi yuritila boshlangan paytda vafot etgan bo'lsa.

11. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ishni ko'rib chiqish tugashi bilanoq darhol e'lon qilinadi.

Qarorni nusxasi uch kun ichida ustidan qaror chiqarilgan shaxsga, shuningdek o'zining iltimosiga ko'ra jabrlanuvchiga topshiriladi yoki jo'natiladi. Qarorning nusxasi tilxat bilan beriladi, basharti qarorning nusxasi jo'natilsa, bu haqda ishga tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

12. Jarima solish haqidagi qaror ikki nusxada to'ldiriladi. Bir nusxasi shu qaror qabul kilingan davlat veterinariya tashkilotida, ikkinchisi aybdorga bevosita yoki uning xizmat idorasiga aloqa xizmati orqali maxsus buyurtma bilan yuboriladi. Bu qaror to'g'risidagi ma'lumot maxsus jurnalda qayd etilgan bo'lishi talab etiladi.

13. Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o'zida undirib olingan taqdirda huquqbuzarlikga qat'iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiya beriladi.

Jarima huquqbuzar tomonidan unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay to'lanishi lozim. O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mustaqil ish xaqi bo'lmagan taqdirda, jarima ularning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganlik uchun solingan jarima huquqbuzarlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi jamg'arma banki muassasasiga to'lanadi, huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida undirib olinadigan jarima bundan mustasno.

14. Huquqbuzar jarimani belgilangan muddat ichida to'lamagan taqdirda, jarima solish to'g'risidagi qaror fuqarolik prosessual qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan qoidalarga muvofiq jarimani undirish haqi yoki ish maoshidan, nafaqasidan yoki stipendiyasidan majburiy tartibda undirib olishga yuboriladi. Basharti jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo'lsa, uni undirib olish tuman (shahar) sudining sud ijrochisi tomonidan jarima solish to'g'risida tegishli organ (mansabdor shaxs) chiqargan qaror asosida huquqbuzarning shaxsiy mulkidan, shuningdek umumiy mulkdagi uning hissasidan undirib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

15. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan yuqori turuvchi mansabdor shaxsga shikoyat berilishi mumkin. Shikoyat ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror qabul kilingan mansabdor shaxs shikoyatni olgach, uni uch sutka ichida ish bilan birga shikoyatni ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsga yuboradi.

Shikoyat, qarorning nusxasini olgan kundan boshlab uch kun ichida berilishi mumkin. Mazkur muddat uzrli sabablar bilan o'tkazilib yuborilgan taqdirda, bu muddat shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli mansabdor shaxs tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Prokuror ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan mansabdor shaxs qarori ustidan - qaror chiqargan mansabdor shaxsga yoki yuqorida turuvchi mansabdor shaxsga protest bildirish mumkin. Prokurorning protest bildirishi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qabul qilingan qaror ijrosini

protest ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib turadi. Shikoyat va protest mansabdor shaxs tomonidan tushgan kundan boshlab uch kun ichida ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha qabul kilingan hal qiluvchi qarorida: u chiqarilgan vaqt va joy, shikoyat yoki protestni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs, prokuror va boshqa ishtirok etayotgan shaxslar, shikoyat bergan shaxs yoki protest bildirgan prokuror, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan shikoyat berilgan yoki protest bildirgan qarorning hamda shikoyat, protestning mohiyati, chiqarilayotgan qarorni asoslanishi, shikoyat yoki protest yuzasidan qaror ko'rsatilishi lozim.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestga doir hal qiluv qarorining nusxasi o'z haqida ana shu qaror chiqarilgan shaxsga o'n kun muddat ichida yuboriladi, jabrlanuvchiga esa uning iltimosiga binoan yuboriladi. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida prokurorga ma'lum qilinadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan berilgan shikoyat yuzasidan chiqarilgan xal qiluv qaroriga prokuror protest berishi mumkin.

Shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga protest mazkur qarorni chiqargan organdan (mansabdor shaxsdan) yuqori turuvchi organga kiritiladi.

16. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahri davlat vetrinariya boshqarma va bo'linmalari mahalliy davlat banklarida jarima to'lovidan hosil bo'ladigan "Epizootik fond jamg'armalari" hisob raqamlarini rasmiylashtirishlari va uni har oyning birinchi ish kunida nazoratga olib borishlari talab etiladi.

17. Qaror va kvitansiya blankalari markazlashgan holda tayyorlanib, jarimalar solish huquqiga ega bo'lgan davlat veterinariya xizmatining lavozimli shaxslariga beriladi va bu blankalar to'liq hujjat sifatida saqlanadi. Jarima tariqasida undirib olingan pullar mahalliy moliya organlari bilan kelishilgan muddatlarda mahalliy jamg'armalarga o'tkazish uchun topshiriladi.

Olingan jamg'armalar to'g'risida hisobot har oyining 5-kuniga joylardagi moliya boshqarmalariga ma'lumot berib turiladi va ushbu jarimalardan tushgan mablag' hayvonlar uchun dori-darmonlar xarid qilishga sarflanadi.

Har yili 1 yanvar holati bo'yicha ishlatiladigan va olgan qaror va kvitansiya blankalari seriya va nomerlari ko'rsatilgan holda inventarizasiyadan o'tkaziladi. Inventarizasiya aktlarining bir nusxasi yuqori veterinariya tashkilotiga yuboriladi.

18. Jarima solish vakolat huquqlariga ega bo'lgan davlat veterinariya tashkilotlari "Veterinariya to'g'risida" qonun hujjatlari talablarini buzulishi va huquqbuzarlarga nisbatan qo'llangan choralar hisobotini olib borishi shart.

19. "Veterinariya to'g'risida"gi Qonun hujjatlari talablarini buzishda aybdor bo'lgan lavozimli veterinariya mutaxassislari ma'muriy javobgarlikka tortiladilar, ammo ularga nisbatan jarima solinmaydi.

20. Jarima solinganligi to'g'riligini va huquqbuzarlik sodir etilgan joyining o'zida undirib olingan jarimalarni o'z vaqtida jamg'arma banklarga topshirilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya organlariga yuklatiladi.

Bayonnoma, qaror va kvitansiya blankalari namunalari ilova kilinadi.

5. MENEJMENT ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni sanoat negizida o'tkazish bu hozirgi paytdagi bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi bu qishloq xo'jalik hayvonlaridan biologik imkoniyatlardan to'liq foydalanish va kam mehnat kamdan kam oziqa sarflab yuqori oziqa samaradorlikka erishishdan iboratdir. Chorvachilik sohani tashkil etish va ularni boshqarish organlarining strukturasi qishloq sohalarini tashkil etishda juda o'xshashadir. Xuddi yilqichilik, qoramolchilik, qo'ychilik fermalari cho'chqachilik hamda parrandachilik fabrikalarida asosiy ishlab chiqarish bo'linmasi sanoat korxonalaridagi sexlar kabi bo'ladi.

Fermada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ferma boshlig'i zimmasiga yuklatilgan bo'lib, fermada javobgar shaxs hisoblanadi. Fermadagi barcha ishchi xizmatchilar u kishiga bo'ysunadilar.

Xo'jalik kerakli mutaxassislar bilan ta'minlangan bo'lib doimiy reja asosida malakalarini oshirib boradilar.

Iqtisodiy nazariya insonlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatini ishlab chiqarish jarayonida o'rganiladi va quyidagilardan iborat.

1. Ishlab chiqarish.
2. Taqsimlash.
3. Iste'mol qilish.

Tashkil qilish fani iste'molchilar fani uchun mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'rgatadi.

Ishlab chiqarish uchun uch element talab etiladi.

1. Mehnat kurashi.
2. Mehnat vositasi.
3. Qo'l kuchi.

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida boqiladi. Hamda chorvachilikning asosiy qismini xo'jalik tashkil qiladi.

Ko'pchilik xo'jaliklarda ishlab chiqarish yaxshi tashkil etish bu katta iqtisodiy samara olish degani.

Barcha chorvachilik xo'jaliklarida yuqumli va yuqumsiz kasalliklar oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni reja asosida olib borish kerak.

Bu ishlarni amalga oshirishda esa veterinariya mutaxassislariga katta ma'suliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida chorvachilik asosiy tarmoqlardan biri bo'lib, uning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti davrida chorvachilikni jadal rivojlantirishni imkoniyatlari, avvalambor chorvachilikni xususiylashtirish va ixtisoslashgan o'rta va kichik fermalarni kuchaytirish, shirkat, fermer va aholining shaxsiy xo'jaliklarida ilg'or tajriba, yangi texnologiyalar va fan yutuqlaridan oqilona foydalanishga qaratilishi lozim. Bunda xo'jalik yuritishning yangi usullari va samarali ishlab chiqarish tizimlarini ishga solish bozor iqtisodiyoti uchun ayni muddaodir.

Chorvachilikni rivojlantirishda shirkat va xususiy dehqon xo'jaliklarining fermalarini qayta shakllantirish va barqaror taraqqiy ettirish bilan nodavlat chorvachilikni jadallashtirish va ixtisoslashtirish asosiy omillardan hisoblanadi.

Chorvachilikning istiqboldagi rivojlanishi hukumatning qishloq xo'jaligini rivojlantirishiga qaratilgan strategiyasi - «1998 - 2000 yillarda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturi»ni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida o'z aksini topgan. Bu dastur fermer xo'jaliklarini tashkil etish, chorvachilikni xususiylashtirish, mulkchilik shakllarini va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida raqobatchilik muhitini yaratishga va raqobatni kuchaytirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida, uning samaradorligini oshirishning barcha tashkiliy, iqtisodiy va qonuniy hujjatlari, me'yoriy asoslari yaratilgan. Bu soha, asosan 5,6 ming chorvachilik fermer xo'jaliklarida va 3,7 mln. shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida rivojlantirilib mavjud qoramollarning 66,1 foizi, shu jumladan sigirlarning 90,0 foizi bundan tashqari,

qo'y va echkilarning 76,4 foizi va parrandalarning 58,7 foizi dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lib, chorvachilikni xususiy mulkka aylantirilishiga iqtisodiy asos yaratilmoqda. Ta'kidlash kerakki mamlakatimizda ishlab chiqariladigan go'shtning 91,1 foizi, sutning 93,6 foizi va tuxumning 63 foizi umuman olganda, qishloq xo'jalik maxsulotlarining 60-63 foizi xususiy tomorqaga xo'jaliklarda yetishtirilmoqda.

Qo'ychilik chorvachilikda anchagina katta ahamiyatga ega. Bu tarmoq go'sht, yog', sut, jun, teri, qorako'l terisi kabi xilma-xil va qimmatbaho mahsulotlar beradi.

Qo'ychilik chorvachilikning tovar mahsulot yetishtirishdagi yetakchi tarmoqlardan hisoblanadi, go'sht yetishtirishda qoramolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Qo'y go'shti har yili O'zbekistonda yetishtiriladigan go'shtning 20 foizini tashkil etadi.

Tabiiyki, chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hozir eng asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ixtisoslashtirish bir qancha omillarga, shu jumladan xo'jalikning tabiiy-iqtisodiy sharoitiga, qo'ylar zotiga, ularni boqish uslubiga, xo'jalikdagi ishlab chiqarish texnikasiga, mahsulot yetishtirish texnologiyasiga va bularning hammasini bir maqsad uchun yo'naltiruvchi ish jarayonlarini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Qorako'lchilik cho'l va yarim cho'l mintaqalarida yashovchi aholining faoliyat ko'rsatish va daromad olish manbasi hisoblanadi. Keyingi yillarda tarmoqning xo'jalik yuritish tizimida ham, mulkchilik shakllarida ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Bunga Vazirlar Mahkamasining keyingi yillarda qabul qilingan qaror va farmoyishlari asos bo'ldi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 iyundagi "Qorako'lchilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 250-sonli qarori qabul qilinganidan so'ng tarmoqda keskin o'zgarishlar bo'lishi kuzatildi. Hozirgi kunda qorako'lchilikda iqtisodiy ishlarni takomillashtirish, qorako'lchilik xo'jaliklari va korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida respublikadagi 30 ta naslchilik, 84 ta tovar xo'jaliklari, qo'ylarni bo'rdoqiga boquvchi 11 ta va

qorako'lcha etishtiruvchi 84 ta majmua hamda qorako'lchilik mahsulotlarini qayta ishlaydigan 2 sanoat korxonasini bir tizimga birlashtiruvchi, «O'zbek qorako'li» kompaniyasi tashkil etilgan.

Mamlakatimizda har bir xo'jalik joylashgan hududning tabiiy sharoitiga qarab, ularda joylashgan qo'ylarning zotlariga ko'ra quyidagicha ixtisoslashishni kuzatish mumkin: qorako'l teri, go'sht-jun va go'sht-yog' mahsuloti beradigan xo'jaliklar.

1. Bug'oz sigirlar tug'ish oldi va tug'ish davridagi veterinar-sanitar, zoogigienik servis xizmatlari bilan birgalikda, har bir fermada umumiy poda sonining 10-15% hisobida profilakteriyalar bo'lishi shart va 3-4 seksiyadan iborat bo'lib, har bir seksiyaga jihozlar, inventarlar ham alohida bo'ladi. Profilaktoriyada maxsus qo'shimcha xona bo'lib, unda yuvish, dizenfeksiya, idishlarni saqlash xonasi bo'ladi, buzoqlarga sut berish idish-anjomlari ham yuvilgan holda shu xonada saqlanadi. Tug'ruqxonaga kirish seksiyasiga umival'nik, sochiq, sovun, dezinfeksiyalovchi vositalar bo'ladi, har bir xonada kirish joyida dezkovrik bo'lishi shart. Yoki dezvanna bo'ladi, kengligi yo'lakka teng bo'lsin uzunligi kamida 1,5 m bo'lsin. Dezkovrik vadexvannalar qo'yidagi eritmalardan biri bilan to'ldiriladi, namlanadi: 2-3% natriy ishqori yoki formaldegid, xlorli oxak, gipoxlar va 2% aktiv xlorli ohak eritmasi.

2. Bug'oz sigirlar tug'ishiga 1,5-2 oy qolganda maxsus profilaktoriyalarga o'tkaziladi va ozuqlanish, parvarishi yaxshilanadi. Qunojinlarni tug'ishiga 3-oy qolganda o'tkaziladi. Tuqqandan so'ng 10-15 sutka shu profilaktoriyalarda boqish, parvarishlash davom etadi. To'g'riq profilaktoriyasiga o'tkaziladigan sigirlar yaxshilab tozalanadi oyog'ining pastki qismi 05% lizol yoki formalin eritmasi bilan yuviladi.

3. To'g'riq profilaktoriyasi har kuni tozalanadi, lozim topilsa dizenfeksiya qilinadi. Tug'ish belgilari hosil bo'lgan sigirlar orqa qismi 1:1000 $KMnO_4$ u iliq eritmasi bilan yuviladi. Bu joy har bir buzoq tug'ilgandan so'ng to'liq pol, shift, eshik, romlar hammasi dizenfeksiya qilinadi.

4. Yangi tug'ilgan buzoq, toza, rezina kovrikli kletkalarda saqlanadi. Kindik uzilgan joyiga 5% yod nastoykasi suriladi. Buzoqning onasi yalab qurisin, keyin alohida katakchaga o'tkaziladi, shu erda 8-10 kunlikgacha parvarishlanadi. Katta yoshdagi buzoqlar bu xonada bo'lmasin. Tug'ilgan buzoq Buzoqxona, to'g'riqxonalar kletkalar 2% formaldegid, 4% (+70°S li) natriy ishqori, xlorli oxak, 2% vodorod paroksidi (0,0%li sut kislotasi qo'shilgan), 1m² ga 1 l hisobida kamida 3 soat ekpozitsiyada dizinfeksiya qilinadi va keyinyuvib tashlanib, shamollatib quritiladi. Molxonalar germetik bo'lsada infeksiya aerosol usulida ham qo'llaniladi, buning uchun (38-40% farmolin) 20ml/m³, ekpozitsiya -24 soat, keyin neytrallashtirish quritiladi yoki formalinni neytrallashtirish maqsadida 28% li ammiak 10 ml/m³ ga sarflanib dezinfeksiya qilinadi. Molxonada aerosol dizinfeksiya qo'llanilganda xarorat +15°S dan past bo'lmasligi lozim, havoning nisbiy namlik darajasi 60% dan past bo'lmasin. Agarda nisbiy namlik darajasi 60% dan past bo'lsa 10-20 ml/m³ hisobida suv purkalib keyin aerosol dezinfeksiya o'tkaziladi.

Keyin xona shamollatib quritilib harorati 20-22°S etkazilib, so'ngra buzoqlar kiritiladi, buzoqlar guruhi yoshi 3-kundan katta farqi bo'lmasin. Molxonalarning qolganlari qo'yidagi dezinfektorlar bilan dezinfeksiyalanadi: 4% li (70°S) issiq natriy ishqori, 3%li parasod preparati yoki fospar, gipoxlar eritmasi, 3%li aktiv xlorlisi, bu eritmalar bir marta 0,5 l/m² yuzaga, ekpozitsiya - 1soat.

5. Sigirlar tuqqandan 1-soat o'tgach, sho'rtak atala (issiq holda) bilan oziqlantiriladi. Yo'ldosh to'liq ko'rib olinib, maxsus germetik idish bilan yoqib yo'q qilinadi. Sigir tuqqandan so'ng 5-6 soat o'tgach yo'ldoshi tushmasa simptomatik davolash qo'llaniladi: progesterin 2-4 ml, sinistral -2-4 ml, 40% glyukoza antibiotikli 500-1000 ml venaga, agar tuqqandan keyin 24 soat ichida yo'ldosh tushmasa jarrohlik uslubi qo'llaniladi (operativ manupuloterapiya).

6. Tuqqan sigir elini iliq sovunni suv bilan yuvilib, toza salfetka bilan surtilib so'rg'ichlari 0,5% dazmol eritmasi, birxlorli yod, xloramin, 1%li gipoxlorid natriy eritmalar bilan artiladi. Sog'uvchi qo'lini issiq sovunni suv bilan yuvadi,

dezinfeksiya qiladi. birlamchi sut maxsus idishga sog'ib olib yo'q qilinadi. Mastit, endometrit bilan kasallangan.

7. Tug'ilgan buzoq 1-1,5 soat ichida emish refleksii paydo bo'lgandan so'ng emiziladi. Yemish refleksini tormozlash uchun so'rg'ichni og'izdan chiqarilib bermay turish hollari takrorlanishi foydali.

8. Tug'ilgan kunlari 37-38°S li. Keyinchalik sutkada 3-marta emiziladi 40 ml/kg tirik vazniga bir ichishda. Uchinchi kundan boshlab buzoqlarga qaynatilgan suv hohishiga beriladi (25-30°S sovutilgani).

9. Sut beriladigan idishlari har safar ishlatilgandan so'ng tozalab yuviladi va dezinfeksiya qilinadi 0,1% gipohlorid natriy, 0,5% dezmol keyin 60-65°S li isiq suvda dushda yuviladi. 1 minut davomida. Agar dush bo'lmasa idishlar 10-15 minut dez eritmalarda vannada saqlanib yuvib tashlanadi va quritiladi. Har bir emizishdan so'ng rezina so'rg'ich albatta yuviladi va 1% soda eritmasida 2-3 min. Qaynatiladi. Suv beruvchi idishlar va so'rg'ichlar yopiq shkaflarda saqlanadi.

10. Fermada kolibakterioz chiqib qolsa qo'yidagi ishlar bajariladi:

- Kasallik chiqqan bo'limdan pofilaktoriyaga buzoq qabul qilish to'xtatiladi. Kasallik chiqqan bo'limda davolash, profilaktik ishlar amalga oshiriladi. Go'ng va to'shamalar yig'ilib biotermik usulda zararsizlan tiriladi.

Go'ng yig'ishtirida ishlatilgan asbob-anjomlar dezinfeksiya qilinadi (har kuni).

Kasal buzoqlarga kolibakteriozga qarshi giperimmum zardob (mono, polivalentli) antibiotiklar, nitrofuran va sulfanilamid preparat-lari yuboriladi ular yo'riqnomasi bo'yicha ishlatiladi. Og'iz suti, sut berish 1-2 marta to'xtatilib, keyin qaynoq suv bilan teng aralashtirilib beriladi. Bir vaqtning o'zida aktiv simpomoterapiya qo'llaniladi tonusni oshiruvchi, rezistentlik, ishqor-kislota muvozanatini optimallashtiruvchi, yurak-tomirlar faoliyatini stabillashtiruvchi, suvsizlanishni, ich ketishni, zaxarlanishni neytrallovchi vositalar qo'llaniladi. Kasal buzoqlarga a'lohida malakali, tajribali ishchilar ajratiladi.

Kasal buzoqlar saqlanayotgan xonalar, go'ng, suyuqliklar, em-xashak, sut qoldiqlari 4% 70°S natriy ishqori, gipohlar, xlorli ohak 3% li aktiv xlorli, pol, yo'laklarga esa so'ndirilgan ohak sepiladi. Albatta dezinfeksiyadan so'ng molxona shamollatiladi. Bakteriosid lampalar qo'llaniladi UFO (2,5 Vt 1m³ga). Manna shu xonadagi kishilar boshqa molxonalarga o'sha kiyib yurgan ust-boshlari bilan o'tishlari, yoki shu xonaga begonalar kirishlari ta'qiqlanadi. Umumiy kasal xona bor joyga faqat boquvchilar, davolovchilar kirishi mumkin xolos.

Kasallikdan o'lgan hayvonlar hayvonlar jasadlari maxsus germetik sellofan qoplarda trup zavodga yuboriladi yoki mufil pechlarda ko'ydiriladi. Jasadni to'g'ri kelgan joyda tekshirish, yorib ko'rish qati'yan mann etiladi.

Barcha tug'ilgan buzoqlarga 2-4 soat ichida 80-100 ml kolibakteriozga qarshi giperrimmun qon zardobi ichiladi reg os.

Kletkalar oralig'i kamida 1-1,5 m bo'lishi ta'minlanadi, kontakt bo'lmasin.

Bo'g'oz sigirlar kolibakteriozga qarshi vaksina bilan instruksiya bo'yicha emlanadi. 5-punktda ko'rsatilgan kabi dezinfeksiya qilinadi, inventar va jihozlar ham dezinfeksiyalanadi.

Kasal buzoqlar sog'aygan keyin ular saqlangan kletkalar va buzoqxonalar 5-punktda ko'rsatilgani kabi dezinfeksiya qilinadi, inventar va jihozlar ham dezinfeksiyalanadi.

Mollar bilan ishlaganda xushyorlik bilan ishlash lozim. Hayvonlar og'illarda, yayrash maydonchalarda va dalalarda boqiladi. Molxonalarda boqilganda mollarni klinik ko'rikdan o'tkazish uchun, ushlaganda fiksasiya qilishda juda e'tibor berish lozim, chunki ular shoxlashi yoki tepishi mumkin.

Dala sharoitida boqilganda buqalarni, sigirlarni, g'unojin, tana va buzoqlarni insonga jarohat etkazmaslikka harakat qilinadi. Dorilar ikki guruhga bo'linadi kuchli ta'sir qiluvchi A guruh dorilar va V guruh dorilarga bo'linadi. V guruh dorilarga kuchli zararli ta'sir qiladigan dorilar kiradi. Bular maxsus shkaf va

Seflarda saqlanadi va eshiklari oldiga “Kuchli ta’sir etuvchi” “V” deb yozib qo’yilishi kerak. Hamma dorilar qattiq veterinari vrachi tomonidan nazoratda ishlatilishi shart.

Chorvo mollarni qirg’inbarot qurollardan himoya qilish bo’yicha umumiy tadbirlar hayvonlar va o’simliklar hamda ularni mahsulotlarini suv va suv manbalarini qirg’in qurollardan qo’riqlash fuqoralar himoyasining (GO) asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun avvaldan tuzilgan quyidagi kompleks tadbirlarga tayyorgarlik ko’rish va amalga oshirish kerak.

1. Chorvo mollarni turar joyini yaylov va yuradigan yo’llarini radioaktiv ximiyaviy va bakteriologik usullar bilan tekshirib tahlil qilish kerak.

2. Zaharlovchi, bakteriologik va radioaktiv moddalar 9intensiv) indikasiya qilinishi zarurdir..

3. Chorvo mollarning yashirish saqlash uchun fermalar, boshqa katta hajmdagi binolar va boshqalar avvaldan tayyorlangan bo’lishi kerak.

4. Yashirin (himoyada) saqlanayotgan mollar uchun suv va oziqa zaxiralari yaratilgan bo’lishi kerak.

5. Zotli va qimmatbaho mollarning alohida himoyasini tashkil etish lozim.

6. Qirg’in qurolli ta’sir qilgan hayvonlarni veterinariya ko’rigidan o’tkazish va himoyalash muolajalarini o’tkazish kerak.

7. Fermalarda em - xashak, suvni va asbob - anjomlarni zararsizlantirish.

8. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurasha olishi uchun mollarga veterinariya – sanitariya jihatdan toza molxona, sifatli oziqa bazasi yaratish zarur.

9. Ferma va molxonalarda yong’inga qarshi jixozlar va avtomat elektr ta’minoti bilan ta’minlangan bo’lishi lozim.

10. Maxsus davolovchi va oldini oluvchi dori-darmonlar hamda (vaksina) emlamalar bilan ta’minlangan bo’lishi kerak.

11. Ferma va molxona mahsulotlari, oziqa hamda suv ekspertizadan o’tkazilishi kerak.

Yuqoridagi tadbirlar tuman veterinariya xizmatining ishtirokida yuqoridagilarni hal qilib qishloq xo'jalik ferma va dehqon xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Bu tadbirlarni amalga oshirishini qaysi davrga to'g'ri kelishiga bog'liq.

a) Tinchlik davrida.

b) Urush bo'lib turgan davrda.

v) Bosqinchlar tomonidan qirg'in qurollarini ishlatiladigan davrda.

Bu vazifalarni bajarish uchun chorvo mollari va o'simliklarni (ekinlarni) himoya qiluvchi harbiylashtirilmagan fuqaroga himoya tizimlari (birgada, zveno, guruh) tashkil qilinishi zarur bo'lgan himoyalash usullari, birinchi yordam ko'rsatish amallari vahokazolarga o'rgatilishi lozim. Buning uchun zarur bo'lgan veterinariya, zootexniya, agronomiya tashkilotlari hamda mutaxassislari jalb qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalitgida ishlab chiqarishni sanoat negizida o'tkazish bu hozirgi paytdagi bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi bu qishloq xo'jalik hayvonlaridan biologik imkoniyatlardan to'liq foydalanish va kam mehnat kamdan kam oziqa sarflab yuqori oziqa samaradorlikka erishishdan iboratdir. Chorvachilik sog'ani tashkil etish va ularni boshqarish organlarining sturukturasi qishloq sog'alarini tashkil etishda juda o'xshashadir. Xuddi yilqichilik, qoramolchilik, qo'ychilik fermalari cho'chqachilik hamda parrandachilik fabrikalarida asosiy ishlab chiqarish bo'linmasi sanoat korxonalaridagi sexlar kabi bo'ladi.

Fermada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ferma boshlig'i zimmasiga yuklatilgan bo'lib, fermada javobgar shaxs hisoblanadi. Fermadagi barcha ishchi xizmatchilar u kishiga bo'ysunadilar.

Xo'jalik kerakli mutaxassislar bilan ta'minlangan bo'lib tuzmiy reja asosida malakalarini oshirib boradilar.

Iqtisodiy nazariya insonlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatini ishlab chiqarish jarayonida o'rganiladi va quyidagilardan iborat.

1. Ishlab chiqarish.
2. Taqsimlash.
3. Iste'mol qilish.

Tashkil qilish fani iste'molchilar fani uchun mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'rgatadi.

Ishlab chiqarish uchun uch element talab etiladi.

1. Mehnat kurashi.
2. Mehnat vositasi.
3. Qo'l kuchi.

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida boqiladi. Hamda chorvachilikning asosiy qismini xo'jalik tashqil qiladi.

Ko'pchilik xo'jaliklarda ishlab chiqarish yaxshi tashkil etish bu katta iqtisodiy samara olish degani.

Barcha chorvachilik xo'jaliklarida yuqumli va yuqumsiz kasalliklar oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni reja asosida olib borish kerak.

Bu ishlarni bularni amalga oshirishda esa veterinariya mutaxassislariga katta ma'suliyat yuklaydi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida chorvachilik asosiy tarmoqlardan biri bo'lib, uning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti davrida chorvachilikni jadal rivojlantirishni imkoniyatlari, avvalambor chorvachilikni xususiylashtirish va ixtisoslashgan o'rta va kichik fermalarni kuchaytirish, shirkat, fermer va aholining shaxsiy xo'jaliklarida ilg'or tajriba, yangi texnologiyalar va fan yutuqlaridan oqilona foydalanishga qaratilishi lozim. Bunda xo'jalik yuritishning yangi usullari va samarali ishlab chiqarish tizimlarini ishga solish bozor iqtisodiyoti uchun ayni muddaodir.

Chorvachilikni rivojlantirishda shirkat va xususiy dehqon xo'jaliklarining fermalarini qayta shakllantirish va barqaror taraqqiy ettirish bilan nodavlat chorvachilikni jadallashtirish va ixtisoslashtirish asosiy omillardan hisoblanadi.

Chorvachilikning istiqboldagi rivojlanishi hukumatning qishloq xo'jaligini rivojlantirishiga qaratilgan strategiyasi - «1998 - 2000 yillarda qishloq xo'jaligida

iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturi»ni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida o'z aksini topgan. Bu dastur fermer xo'jaliklarini tashkil etish, chorvachilikni xususiylashtirish, mulkchilik shakllarini va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida raqobatchilik muhitini yaratishga va raqobatni kuchaytirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida, uning samaradorligini oshirishning barcha tashkiliy, iqtisodiy va qonuniy hujjatlari, me'yoriy asoslari yaratilgan. Bu soha, asosan 5,6 ming chorvachilik fermer xo'jaliklarida va 3,7 mln. shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida rivojlantirilib mavjud qoramollarning 66,1 foizi, shu jumladan sigirlarning 90,0 foizi bundan tashqari, qo'y va echkilarning 76,4 foizi va parrandalarning 58,7 foizi dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lib, chorvachilikni xususiy mulkka aylantirilishiga iqtisodiy asos yaratilmoqda. Ta'kidlash kerakki mamlakatimizda ishlab chiqariladigan go'shtning 91,1 foizi, sutning 93,6 foizi va tuxumning 63 foizi umuman olganda, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 60-63 foizi xususiy tomorqaga xo'jaliklarda etishtirilmoqda.

Qo'ychilik chorvachilikda anchagina katta ahamiyatga ega. Bu tarmoq go'sht, yog', sut, jun, teri, qorako'l terisi kabi xilma-xil va qimmatbaho mahsulotlar beradi.

Qo'ychilik chorvachilikning tovar mahsulot etishtirishdagi etakchi tarmoqlardan hisoblanadi, go'sht etishtirishda qoramolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Qo'y go'shti har yili O'zbekistonda etishtiriladigan go'shtning 20 foizini tashkil etadi.

Tabiiyki, chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hozir eng asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ixtisoslashtirish bir qancha omillarga, shu jumladan xo'jalikning tabiiy-iqtisodiy sharoitiga, qo'ylar zotiga, ularni boqish uslubiga, xo'jalikdagi ishlab chiqarish texnikasiga, mahsulot etishtirish texnologiyasiga va bularning hammasini bir maqsad uchun yo'naltiruvchi ish jarayonlarini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Qorako'lichilik cho'l va yarim cho'l mintaqalarida yashovchi aholining faoliyat ko'rsatish va daromad olish manbasi hisoblanadi. Keyingi yillarda tarmoqning xo'jalik yuritish tizimida ham, mulkchilik shakllarida ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Bunga Vazirlar Mahkamasining keyingi yillarda qabul qilingan qaror va farmoyishlari asos bo'ldi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 iyundagi "Qorako'lichilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 250-sonli qarori qabul qilinganidan so'ng tarmoqda keskin o'zgarishlar bo'lishi kuzatildi. Hozirgi kunda qorako'lichilikda iqtisodiy ishlarni takomillashtirish, qorako'lichilik xo'jaliklari va korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida respublikadagi 30 ta naslchilik, 84 ta tovar xo'jaliklari, qo'ylarni bo'rdoqiga boquvchi 11 ta va qorako'lcha etishtiruvchi 84 ta majmua hamda qorako'lichilik mahsulotlarini qayta ishlaydigan 2 sanoat korxonasini bir tizimga birlashtiruvchi, «O'zbek qorako'li» kompaniyasi tashkil etilgan.

Mamlakatimizda har bir xo'jalik joylashgan hududning tabiiy sharoitiga qarab, ularda joylashgan qo'ylarning zotlariga ko'ra quyidagicha ixtisoslashishni kuzatish mumkin: qorako'l teri, go'sht-jun va go'sht-yog' mahsuloti beradigan xo'jaliklar.

1. Bug'oz sigirlar tug'ish oldi va tug'ish davridagi veterinar-sanitar, zoogigienik servis xizmatlari bilan birgalikda, har bir fermada umumiy poda sonining 10-15% hisobida profilakteriyalar bo'lishi shart va u 3-4seksiyadan iborat bo'lib, har bir seksiyaga jihozlar, inventarlar ham alohida bo'ladi. Profilaktoriyada maxsus qo'shimcha xona bo'lib, unda yuvish, dizinfeksiya, idishlarni saqlash xonasi bo'ladi, buzoqlarga sut berish idish-anjomlari ham yuvilgan holda shu xonada saqlanadi. Tug'ruqxonaga kirish seksiyasiga umival'nik, sochiq, sovun, dezinfeksiyalovchi vositalar bo'ladi, har bir xonada kirish joyida dezkovrik bo'lishi shart. Yoki dezvanna bo'ladi, kengligi yo'lakka teng bo'lsin uzunligi kamida 1,5 m bo'lsin. Dezkovrik vadexvannalar qo'yidagi eritmalardan biri bilan to'ldiriladi, namlanadi:

2-3% natriy ishqori yoki formaldegid, xlorli oxak, gipoxlar va 2% aktiv xlorli ohak eritmasi.

2. Bug'oz sigirlar tug'ishiga 1,5-2 oy qolganda maxsus profilaktoriyalarga o'tkaziladi va ozuqlanish, parvarishi yaxshilanadi. Qunojinlarni tug'ishiga 3-oy qolganda o'tkaziladi. Tuqqandan so'ng 10-15 sutka shu profilaktorilarda boqish, parvarishlash davom etadi. To'g'riq prafilaktoriyasiga o'tkaziladigan sigirlar yaxshilab tozalanadi oyog'ining pastki qismi 05% lizol yoki formalin eritmasi bilan yuviladi.

3. To'g'riq profilaktoriyasi har kuni tozalanadi, lozim topilsa dizinfeksiya qilinadi. Tug'ish belgilari hosil bo'lgan sigirlar orqa qismi 1:1000 KMpo u iliq eritmasi bilan yuviladi. Bu joy har bir buzoq tug'ilgandan so'ng to'liq pol, shift, eshik, romlar hammasi dizinfeksiya qilinadi.

4. Yangi tug'ilgan buzoq, toza, rezina kovrikli kletkalarda saqlanadi. Kindik uzilgan joyiga 5% yod nastoykasi suriladi. Buzoqning onasi yalab qurisin, keyin alohida katakchaga o'tkaziladi, shu erda 8-10 kunlikgacha parvarishlanadi. Katta yoshdagi buzoqlar bu xonada bo'lmasin. Tug'ilgan buzoq Buzoqxona, to'g'riqxonada kletkalar 2% formaldegid, 4% (+70°S li) natriy ishqori, xlorli oxak, 2% vodorod paroksidi (0,0%li sut kislotasi qo'shilgan), 1m² ga 1 l hisobida kamida 3 soat ekpozitsiyada dizinfeksiya qilinadi va keyinyuvib tashlanib, shamollatib quritiladi. Molxonada germetik bo'lsadi zinfeksiya aerosol usulida ham qo'llaniladi, buning uchun (38-40% farmolin) 20ml/m³, ekpozitsiya -24 soat, keyin neytrollash quritiladi yoki formalinni neytrallash maqsadida 28% li ammiak 10ml/m³ ga sarflanib dezinfeksiya qilinadi. Molxonada aerosol dizinfeksiya qo'llanilganda xarorat +15°S dan past bo'lmasligi lozim, havoning nisbiy namlik darajasi 60% dan past bo'lmasin. Agarda nisbiy namlik darajasi 60% dan past bo'lsa 10-20 ml/m³ hisobida suv purkalib keyin aerosol dezinfeksiya o'tkaziladi.

Keyin xona shamollatib quritilib harorati 20-22°S etkazilib, so'ngra buzoqlar kiritiladi, buzoqlar guruhi yoshi 3-kundan katta farqi bo'lmasin. Molxonalarning qolganlari qo'yidagi dezinfektorlar bilan

dezinfeksiyalanadi: 4% li (70°S) issiq natriy ishqori, 3%li parasod preparati yoki fospar, gipoxlar eritmasi, 3%li aktiv xlorlisi, bu eritmalar bir marta 0,5 l/m² yuzaga, ekpozisiya - 1soat.

5.Sigirlar tuqqandan 1-soat o'tgach, sho'rtak atala (issiq holda) bilan oziqlantiriladi. Yo'ldosh to'liq ko'rib olinib, maxsus germetik idish bilan yoqib yo'q qilinadi. Sigir tuqqandan so'ng 5-6 soat o'tgach yo'ldoshi tushmasa simptomatik davolash qo'llaniladi: progesterin 2-4 ml, sinistral -2-4 ml, 40% glyukoza antibiotikli 500-1000 ml venaga, agar tuqqandan keyin 24 soat ichida yo'ldosh tushmasa jarrohlik uslubi qo'llaniladi (operativ manupuloterapiya).

6. Tuqqan sigir elini iliq sovunni suv bilan yuvilib, toza salfetka bilan surtilib so'rg'ichlari 0,5% dazmol eritmasi, birxlorli yod, xloramin, 1%li gipoxlorid natriy eritmaları bilan artiladi. Sog'uvchi qo'lini issiq sovunni suv bilan yuvadi, dezinfeksiya qiladi. birlamchi sut maxsus idishga sog'ib olib yo'q qilinadi. Mastit, endometrit bilan kasallangan.

7. Tug'ilgan buzoq 1-1,5 soat ichida emish refleksii paydo bo'lgandan so'ng emiziladi. Yemish refleksini tormozlash uchun so'rg'ichni og'izdan chiqarilib bermay turish hollari takrorlanishi foydali.

8. Tug'ilgan kunlari 37-3 8°S li. Keyinchalik sutkada 3-marta emiziladi 40 ml/kg tirik vazniga bir ichishda. Uchinchi kundan boshlab buzoqlarga qaynatilgan suv hohishiga beriladi (25-30°S sovutilgani).

9.Sut beriladigan idshlari har safar ishlatilgandan so'ng tozalab yuviladi va dezinfeksiya qilinadi 0,1% gipohlorid natriy, 0,5% dezmol keyin 60-65°S li isiq suvda dushda yuviladi. 1 minut davomida. Agar dush bo'lmasa idishlar 10-15 minut dez eritmalarda vannada saqlanib yuvib tashlanadi va quritiladi. Har bir emizishdan so'ng rezina so'rg'ich albatta yuviladi va 1% soda eritmasida 2-3 min. Qaynatiladi. Suv beruvchi idishlar va so'rg'ichlar yopiq shkaflarda saqlanadi.

10.Fermada kolibakterioz chiqib qolsa qo'yidagi ishlar bajariladi:

- Kasallik chiqqan bo'limdan pofilaktoriyaga buzoq qabul qilish to'xtatiladi. Kasallik chiqqan bo'limda davolash, profilaktik ishlar amalga oshiriladi. Go'ng va to'shamalar yig'ilib biotermik usulda zararsizlantiriladi.

Go'ng yig'ishtirida ishlatilgan asbob-anjomlar dezinfeksiya qilinadi (har kuni).

Kasal buzoqlarga kolibakteriozga qarshi giperimmum zardob (mono, polivalentli) antibiotiklar, nitrofuran va sulfanilamid preparat-lari yuboriladi ular yo'riqnomasi bo'yicha ishlatiladi. Og'iz suti, sut berish 1-2 marta to'xtatilib, keyin qaynoq suv bilan teng aralastirilib beriladi. Bir vaqtning o'zida aktiv simpomoterapiya qo'llaniladi tonusni oshiruvchi, rezistentlik, ishqor-kislota muvozanatini optimallashtiruvchi, yurak-tomirlar faoliyatini stabillashtiruvchi, suvsizlanishni, ich ketishni, zaxarlanishni neytrallovchi vositalar qo'llaniladi. Kasal buzoqlarga alohida malakali, tajribali ishchilar ajratiladi.

Kasal buzoqlar saqlanayotgan xonalar, go'ng, suyuqliklar, em-xashak, sut qoldiqlari 4% 70°S natriy ishqori, gipohlar, xlorli ohak 3% li aktiv xlorli, pol, yo'laklarga esa so'ndirilgan ohak sepiladi. Albatta dezinfeksiyadan so'ng molxona shamollatiladi. Bakteriosid lampalar qo'llaniladi UFO (2,5 Vt 1m³ga). Manna shu xonadagi kishilar boshqa molxonalarga o'sha kiyib yurgan ust-boshlari bilan o'tishlari, yoki shu xonaga begonalar kirishlari ta'qiqlanadi. Umumiy kasal xona bor joyga faqat boquvchilar, davolovchilar kirishi mumkin xolos.

Kasallikdan o'lgan hayvonlar hayvonlar jasadlari maxsus germetik sellofan qoplarda trup zavodga yuboriladi yoki mufil pechlarda ko'ydiriladi. Jasadni to'g'ri kelgan joyda tekshirish, yorib ko'rish qati'yan man etiladi.

Barcha tug'ilgan buzoqlarga 2-4 soat ichida 80-100 ml kolibakteriozga qarshi giperrimmun qon zardobi ichiladi reg os.

Kletkalar oralig'i kamida 1-1,5 m bo'lishi ta'minlanadi, kontakt bo'lmasin.

Bo'g'oz sigirlar kolibakteriozga qarshi vaksina bilan instruksiya bo'yicha emlanadi. 5-punktida ko'rsatilgan kabi dezinfeksiya qilinadi, inventar va jihozlar ham dezinfeksiyalanadi.

Kasal buzoqlar sog'aygan keyin ular saqlangan kletkalar va buzoqxonalar 5-punktida ko'rsatilgani kabi dezinfeksiya qilinadi, inventar va jihozlar ham dezinfeksiyalanadi.

6. FUQAROLAR MUDOFASI VA MEHNAT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI

Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida» kitobida ekologik muammolar to'g'risida shunday degan edi: «Milliy xavfsizlikka qarshi muammolarni ko'rib chiqar ekanmiz ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi e'tiborga molikdir.

Asrlar davomida to'planib kelgan ekologik muammo hozirgi pallada butun insoniyat, mamlakatlar aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish, o'z-o'zidan insoniyatni o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muam-moga beparvolik va ma'suliyasizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Tabiat va inson o'zaro mustaqil qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish, o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Beto'xtov davom etayotgan qurollanish poygasi, atom-kimyoviy qurollar va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlarini sinash, insoniyat yashayotgan muhit uchun juda kata xavf tug'dirmoqda.

Tabiatga qo'pol va tavakkalchilik bilan munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilsa, tabiat buni kechirmaydi.

Hozirgi paytda Respublikada istiqbolli, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda Respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shahar-lar va shahar agromeliorasiyalar kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlashicha, «Yekologik xavfsiz-likni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlaridan biri: “ Jonli tabi-atning butun tabiat genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak».

